

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

UDK: 809.57.1/8

BBK: 81.2

A – 93

ASHIRBAYEVA DILOROM RAVSHANOVNA

Koreys tilida murakkab gaplar sintagmatikasi

5A120102 – Lingvistika

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

f.f.n. Kim O.A.

TOSHKENT - 2013

M U N D A R I J A

Kirish	3
I bob. Koreys tili – tadqiqot ob’yekti	
1. Koreys tilining umumoltoyshunoslikda o’rganilishi	
2. Koreys tili sintaksisini o’rganilishi va sintagmatika	
I bob bo’yicha xulosa	
II bob. Gaplarning tuzilishi jihatidan tasnifi	
1. Sodda gap sintaksisi	
2. Murakkab gap sintaksisi	
II bob bo’yicha xulosalar	
III bob. Murakkab gaplarning funksional – semantik xususiyatlari...	
1. Bog’lanishga asoslangan gaplarning funksiyasi va semantikasi	
2. Ergashishga asoslangan gaplarning funksiyasi va semantikasi	
III bob bo’yicha xulosa.....	
Xulosa	
Adabiyotlar ro’yxati	

Kirish

O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biri xalqning boy intellektual me'rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat va san'at, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirishdir. Chunki har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Zero, ilm bobidagi izlanish insonni ma'naviy, axloqiy – estetik kamolot sari yetaklaydi. Shuning uchun ham Prezidentimizning “Biz mamlakatimizni modernizatsiya qilish, ...dunyodagi taraqqiy etgan davlatlar qatoriga kirishni o'z oldimizga buyuk maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, ta'lim tarbiya sohasini aslo bo'shashtirmasdan, yangi va yuqori bosqichlarga ko'tarishni talab etmoqda”¹, - degan fikri ta'limni tarixiy qadriyatlar va an'analarga yangicha yondashuv va texnologiyalarni joriy etish asosida takomillshtirishga undaydi.

Mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga asoslanadi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublikamizda fan va ta'lim sohasidagi islohotlarga, yetuk kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. Qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”² buning yorqin ifodasidir.

Prezidentimizning 2011 yil 21 maydagi “Oliy ta'lim muassasalarining moddiy – texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora – tadbirlari to'g'risida” gi qarorlari ta'lim tizimini to'liq isloh qilish va malakali mutaxassislar tayyorlashni yo'lga

¹ Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. – T.: O'zbekiston, 2011. T. 19. 25-26 b.

² O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – T., 1997.

qo'yishni nazarda tutadi.

2012 yil 16-17 fevral kunlari Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrida o'tkazilgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi konferentsiya xalqaro jamiyatni O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaralari, yuksak bilimli hamda intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashda davlatning roli va bu borada to'plangan tajriba bilan keng tanishtirish imkonini berdi³.

Bugungi kunda fan-texnika, iqtisod, xalqaro munosabat va xalqaro madaniyatlarning rivojlanishi dunyodagi ko'plab mamlakatlarning tarixi, madaniyati, iqtisodi va siyosatini chuqurroq tushunishga va tahlil qilishga imkon beryapti. Bu borada XX-asrning oxirgi o'n yilligida ko'plab sohalarda yutuq va muvaffaqiyatlarga erishgan Koreya Respublikasi ham bu borada chetda qolmadi. Koreya bilan turli sohalarda hamkorlik qilayotgan va hamkorlik o'rnatish istagidagi davlatlar avvalam bor, ushbu ajoyib mamlakatning tarixi, madaniyati hamda urf-odatlarini o'rganish barobarida, Koreya Respublikasining qisqa fursat ichida qo'lga kiritgan yutuq va muvaffaqiyatlarining asosi bilan ham qiziqadilar. Ammo, ko'pchilikning koreys tilini bilmasligi, yuqoridagi hoxish-istaklarning amalga oshishida qandaydir ma'noda to'siq bo'lishi mumkin deya ayta olamiz. Aynan shuning uchun ham, xozirgi kunda koreys tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning jadal sur'atlar bilan oshishi ajablanarli xol emas.

Til – bu u yoki bu xalqni aniq tasvirlab beruvchi, xalqning ijtimoiy rivojlanish xosilasidir.

Koreys tili va koreys yozuvi koreys xalqining faxri, g'urur hamda iftixori

³ Karimov I.A. "Barkamol avlod – mamlakatni rivojlantirishda hal qiluvchi kuch". "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyasi ochilishida so'zlagan nutqi. // Toshkent oqshomi. - Toshkent, 2012. 16-17 fevral. - № 32.

hisoblanadi.

“Koreys millatini o’z-o’zini anglashning kuchli idrok etishiga koreys tili turtki bo’lgan bo’lsa, Koreys alifbosi “Hangil” esa tizimliliği bilan dunyoning boshqa alifbolaridan ajrallib turishi bilan bir qatorda, aniq ilmiy hamda falsafiy ildizlarga ega bo’lgan yozuv turi hamdir”⁴.

Ko’p asrlar davomida mamlakatning turli jabhalari Xitoy ta’siri ostida bo’lishi, Yaponiyaning harbiy mustamlaka davlatiga aylantirilganligi, 2-Jahon urushidan so’ng Koreya sarhadlarida Amerika qo’shinlarining saqlanib turishiga qaramasdan, koreys xalqining o’ziga xosligini, nafisligini, koreys xalqining milliy urf-odatlarini-yu, ichki kechinmalarini o’zida saqlab qololgan koreys tili – dunyoning qadimiy tillaridan hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Gap tuzilish usullari turli tillarda tirlicha namoyon bo’lishi hamda o’zining murakkabligi bilan bir – biridan ancha farq qiladi. Shu jihatdan hozirda ommalashib borayotgan koreys tili ham bundan mustasno emas. Gap tuzilishida ayniqsa murakkab gaplar alohida o’rinni egallaydi. Shu boisdan, unda qo’llaniladigan gap bo’laklari hamda grammatik qo’shimchalardan (asosan sabab ma’nosida keluvchi) to’g’ri tartibda foydalanilayotganini hamma vaqt ham kuzatish mumkin emas. Shunday ekan, mazkur ishimizda koreys tilining agglyutinativ tillar toifasiga kirishi, hamda ushbu tilda sodda va murakkab gaplarning grammatik va semantik nuqtai nazardan to’g’ri tuzilishini tahlil asosida isbotlash mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqot predmeti: koreys tilida murakkab gaplar sintagmatikasi.

Tadqiqot ob’yekti: adabiy matnlarda qo’llaniladigan sodda hamda murakkab gaplar.

Tadqiqot metodologiyasi va metodlari: tadqiqot metodologiyasi asosini

⁴ Koreya Respublikasi // Sonlar va faktlar. - Seul. 2001. B. 15-16.

Prezidentimizning ta'limga oid asarlari, ma'ruzalari tashkil etadi. Ishni yoritish davomida sinxron va diaxron tamoyillarga asoalanildi hamda analiz, sintez, an'anaviy va sistem metodlariga murojaat qilindi.

Tadqiqot maqsadi: koreys tilida murakkab gaplar sintagmatikasini o'rganish, gap bo'laklarning murakkab gaplarda tutgan o'rni hamda ularning bog'lanishida grammatik qo'shimchalarning o'rnini belgilash.

Tadqiqot vazifasi: yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni belgilaymiz:

- sintagma va sintagmatika terminlarini o'rganish va izoh berish;
- murakkab gaplarga oid adabiyotlarni (o'zbek, koreys, rus, ingliz va h.z. tillarda) o'rganish va tahlil etish;
- koreys tilidagi sodda va murakkab gaplarni o'ziga xos xususiyatlarni ochib berish;
- gaplarni bog'lovchi konstruksiyalar yordamida birikishini ko'rib chiqish;
- gaplarni o'zaro bog'lanishida ohang va pauzaning o'rnini yoritib berish.

Ilmiy yangiligi: koreys tili hozirgi kunga qadar dunyoning ko'plab tilshunoslari tomonidan o'rganilgan bo'lsada, ularning aksariyati rus, ingliz, koreys va boshqa tillardadir. Koreys tilida murakkab gaplar sintagmatikasi o'zbek tilida ilk bora o'rganilmoqda.

Amaliy ahamiyati: mazkur ishimiz koreys tilini o'rganmoqchi bo'lganlarga hamda bakalavr yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga qo'llanma vazifasida xizmat qilishi mumkin.

O'rganilganlik darajasi: 권재일. 한국어 통사론⁵, 남기심. 표준국어문법론⁶, 고

⁵ 권재일, 한국어 통사론. 2004. (Kvon Che Il, "Koreys tili sintaksisi").

⁶ 남기심. 표준국어문법론. 2001. (Nam Gi Shim, "Adabiy til nazariy gramatikasi").

영근. 한국의 언어 연구⁷, 서정수. 국어문법⁸, 정기철. 문장의 기초⁹.

Magistrlik dissertatsiyasi Kirish, Asosiy qism 3 bob va 6 fasldan, Xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bobda koreys tili – tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilib, uning aynan oltoy tillar oilasiga mansub ekanligi, boshqa tillarga nisbatan ilmiy jihatdan keyinroq o'rganilinganligi, sintagma, sintagmatika, sintagmatik bo'linish haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birgalikda koreys tilida gap tuzilishi haqida ko'plab olimlarning turli fikrlari va unga bo'lgan munosabat hamda xulosalar haqida so'z yuritiladi.

II bobda gaplarning sodda va murakkab gaplarga bo'linishi, ularning farqli jihatlari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning gapdagi vazifasi va kelish o'rni tadqiq qilinib, tegishli xulosalar beriladi.

III bobda gaplarning funksional va semantik belgisiga ko'ra bo'linishi, ergash gap va bog'langan gaplarning turlari ularda bog'lovchilarning o'rni, qo'llanilishidagi ayrim o'xshash va farqli jihatlari yoritiladi.

⁷ 고영근. 한국의 언어 연구. 2003. (Ko Yon Gin, “Koreys tili tadqiqotlari”).

⁸ 서정수. 국어문법. 1996. (So Jong Su, “Ona tili grammatikasi”).

⁹ 정기철. 문장의 기초. 2004. (Chon Gi Chhol, “Gap asosi”).

I BOB. KOREYS TILI – TADQIQOT OB'YEKTI

1. Koreys tili va uni umumoltoyshunoslikda o'rganilishi

Til jamiyatda paydo bo'lganidan boshlab hamisha ijtimoiy harakterga ega bo'lib, kishilarning ijtimoiy mehnat jarayonida yuzaga kelgan o'zaro aloqa bog'lash, fikr almashishga xizmat qiluvchi vositadir. Shu bilan bir qatorda u ham millatning ma'naviy qiyofasini ham o'zligini ifoda etuvchi muhim ramzlardan biri, insoniyat tafakkurining bebaxo ko'zgusi hamdir. Har bir tilning dunyoga kelish sabablari, shakllanish hamda taraqqiy etish tarixi bo'lgani kabi, koreys tilining ham o'ziga xos kelib chiqish tarixi va dialektikasi bor.

Koreys tili boshqa tillarga nisbatan ancha keyingi davrlarda o'rganila boshlandi. Koreys tilining tarixiy negizlarini o'rganishga xususan keyingi omillar sabab bo'lgan. Ma'lumki, Koreya ko'p asrlar davomida Xitoyning mustamlakasi bo'lgan. Bu koreys tilining tarixiy negizlarini o'rganishga bo'lgan birinchi sabab bo'lsa, ikkinchi muammo esa, XV asrgacha, ya'ni, to qirol Sedjon alifboni ixtiro qilgunga qadar, koreyslarning o'z shaxsiy yozuvlari bo'lmaganligidadir¹⁰.

Koreya Xitoyning 1,5 ming yildan ortiq mustamlakasi bo'lgani bois ba'zi tadqiqotchilar, xususan Edkins koreys tilini xitoy tilining boshqacha ko'rinishi

¹⁰ Чжун Сук-Бэ, Ю. В. Ванин, Пак Чон Хе, М. Н. Хан. Лекции по истории Кореи. - М., Экслибрис-пресс, 1997. 96 с.

deya ta'kidlagan¹¹. Ammo bunday fikrlashning o'zi xatodir. Koreys tili leksikasini 75% xitoy tilidan kirib kelgan so'zlar tashkil qilsada, bu koreys tili o'zining mavqeini yo'qotgan degani emas. Bu yerda ikki variantni ko'rishimiz mumkin:

1) koreys tili asosini sof koreys leksikasi tashkil qiladi;

2) koreys tili o'zining gap tuzilishi va grammatikasida o'ziga xoslikni saqlab qolgan bo'lib, unda sof koreys leksikasi va o'zlashgan so'zlar qo'llanilishi mumkin¹².

Biron tilning so'z tarkibi hali u tilning to'liq tarkibini belgilab bermaydi. O'zlashgan so'zlar mazkur tilda qurilish ashyosi singari namoyon bo'ladi. Koreyslar bir etnik guruhga mansub bo'lib, bir tilda ya'ni, koreys tilida so'zlashadilar. Ular mo'g'ul qabilalarining davomchilari hisoblanib, Koreya yarim oroliga bronza asrining neolit davrida kochib borishgan va shu tariqa o'troqlashishgan¹³. Koreys tili Koreya Respublikasining davlat tili hisoblanib, Janubiy Koreyada “한국말” – [Hangukmal], Shimoliy Koreyada esa “조선말” – [Cho'sonmal]-deb yuritiladi. Koreya aholisi 49 mln.dan ziyod bo'lib, ulardan taxminan 530 ming nafari MDH davlatlarida istiqomat qiladi. Bu ko'rsatgich esa chet elda istiqomat qiladigan koreyslarning 7,6% tashkil etadi¹⁴.

Xozirgi kundagi zamonaviy makrokomparativistika (tarixiy-qiyosiy taqqoslash metodi) da oltoy tillari oilasi nostratik (V.M.Illich – Svitichning aniq asoslangan gipotezasiga binoan, hindyevropa, afroosiyo, ural, dravid hamda

¹¹ J.Edkins 1823 yil 19 dekabrda Angliyada tavallud topgan. 57 yil davomida Xitoyda, shundan 30 yil Pekinda yashagan. U tarjimon va tilshunos sifatida nom qozongan. Uning ilmiy izlanishlari asosan xitoy tili va uning tuzilishi hamda buddizm diniga bag'ishlangan.

¹² Джарылгасинова Р. Ш. Когурёсцы. (Историко-этнографическое исследование). Автореф. дисс. ... к. и. н. — М., 1962.

¹³ Джарылгасинова, Р. Ш. Этногенез и этническая история корейцев («Стела Квангэтхо-вана»). — М., Наука, 1979. — 182 стр.

¹⁴ 한국어 (초급) – Начальный курс корейского языка. 국제교육학단 출판부. 서울. 2001, 3쪽.

oltoy tillarining barchasi bir bo'lib, yagona nostratik oilani yuzaga keltiradi – deb ta'kidlagan.) makrooila tarkibiga kiradi. Buning sababini esa uning tarkibiga kiruvchi ko'plab tillar, masalan turkiy, mo'g'ul, tungus-manchjur va h.z. lar misolida ko'rishimiz mumkin. Ammo, bu oilaga koreys tilining ham kirishni alohida ta'lidlab o'tish lozim.

Koreys tili qadimgi tillardan hisoblanib, lingvistik va etnografik tadqiqotlar natijasida mazkur til ural – oltoy tillari guruhiga mansub ekanligi ma'lum bo'ldi. Oltoy va ural tillarining o'ziga xos yaqinliklari haqidagi taxmin (ural – oltoy tillari guruhi haqidagi gipoteza XVIII asrdan beri mavjud) nostratik nazariya asosida yuzaga keldi. Koreys tilining kelib chiqishi tarixiga nazar tashlasak, XIX – asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu tilning yapon tili bilan birgalikda oltoy tillari oilasi bilan o'zaro aloqalari haqidagi g'oya ilgari surila boshlangan. Koreys hamda g'arb olimlarining sermashaqqat mahnatlari koreys tili va oltoy tillarining o'zaro aloqadorlik g'oyalariga ulkan hissa qo'shdi. Koreys tili va oltoy tillarining aglyutinativ xususiyatga ega ekanligi esa mazkur g'oyaning mazmun mohiyatini yanada chuqurlashishiga zamin yaratdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Koreys va yapon tillarining umumiy kelib chiqishi haqidagi nazariya g'arbda XIX-XX asrda yuzaga kelib, uning asoschisi N.Ya.Bichurin va P.Kafarov shu haqda to'xtalib o'tishgan¹⁵.

Koreys va yapon tillarining tadqiq etilishi jarayonida mazkur tillarning leksika, grammatikasida umumiy jihatlar ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi. Koreys tili tarixini o'rganuvchi taniqli koreys tadqiqotchisi Li Gi Mun har ikki tildagi o'zaro o'xshash 200dan ziyod so'z va 15 dan ortiq qo'shimchalar borligini

¹⁵ Чжун Сук-Бэ, Ю. В. Ванин, Пак Чон Хе, М. Н. Хан. Лекции по истории Кореи. — М., Экслибрис-пресс, 1997. — 96 стр.

isbotlab berdi¹⁶.

Ilmiy oltoyshunoslikning yuzaga kelishida N.N.Poppe , B.Ya.Vladimirtsov , Ye.D.Polivanov , S.A.Starostina , M.Svodesh kabi olimlarning qo'shgan xissalari katta ahamiyatga ega. Tilshunoslik tarixida ilk bor "oltoy tillari" terminini finn olimi Kastren qo'llagan¹⁷. U ko'p yillar mobaynida Sharq mamlakatlarida sayohatda bo'lib, tadqiqotchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Kastren oltoy tillari oilasiga nafaqat tungus, manchjur, mo'g'ul, turkiy tillarni balki ural tillariga mansub tillarni ham kiritgan.

Trofimenko O.A.ning yozishiga qaraganda: ilgari (XIX- asrning 30-yillari) oltoy tillariga ural tillari nomi berilgan barcha tillar kiritilgan. "oltoy" termini esa mazkur tillarning ilk shakllangan makoniga ko'ra qo'llanilgan¹⁸. V.M.Illich – Svitichning aniq asoslangan gipotezasiga binoan, hindyevropa, afroosiyo, ural, dravid hamda oltoy tillarining barchasi bir bo'lib, yagona nostratik makrooilani yuzaga keltiradi¹⁹ – deb ta'kidlagan. Kastrendan so'ng ko'plab olimlar "ural-oltoy tillari oilasi" terminini keng qo'llay boshladi. Ammo yanada chuqur olib borilgan tadqiqotlar natijasida finn olimi G.Y.Ramstedt ural va oltoy tillarini ikkiga bo'lib, ularni alohida til guruhlarini ekanligini isbotlab berdi²⁰. Va bugungi kunga kelib esa, oltoy tillari oilasini – tungus-manchjur, turk, mo'g'ul va h.z. tillar tashkil etadi deb hisoblash qabul qilingan.

Ammo, koreys tilining oltoy tillari oilasi bilan bog'liqlik taraflari haqida so'z yuritilganda, bu o'z navbatida finn olimi G.Y.Ramstedt nomi bila bog'liq ekanligini bilamiz. O'tgan asrning 20-yillarida yapon tilining oltoy oilasi bilan

¹⁶ Канаева И.А.Лекция №2. Доисторический период корейского языка. 2.1 Систематический обзор корейского языка. Генеалогия и родственные связи корейского языка. -С.1-2.

¹⁷ O'sha ma'ruza, 6 bet.

¹⁸ О.А.Трофименко О.А. Позиция корейского языка в классификации отдельных групп алтайских языков. // ВЯ. 1992, №3. С.78-83.

¹⁹ Agar mazkur oilaning qardoshlik shajarasiga nazar tashlansa, oltoy tillari sharqiy nostratik shoxdan ajralib chiqqan. Koreys tili esa yapon, tungus-manchjur tillari kabi nostratik dialekt (sheva)ga mansubdir.

²⁰ www.mail.ru http://rodstvennye_svyazi_koreyskogo_s_altayskim &4653

bog'liqlik masalasi ko'tarilganda, ilk bor koreys tili ham mazkur masalaga jalb etilgan. Nisbatan keyinroq, ya'ni 30-yillar oxiriga kelib esa G.Y.Ramstedtning koreys tilining oltoy tillari oilasiga mansub ekanligi haqidagi mashhur maqolasi matbuot yuzini ko'rdi²¹.

U 1919-1939 yillar mobaynida Yaponiyada o'zining tadqiqot ishlarini olib borgan. U yerda koreyalik talabalar bilan muloqotda bo'lib, koreys tiliga mehr qo'ygan va uni o'rgana boshlagan. Koreys tilini o'rganishda yuqori natijalarni qo'lga kiritgan. Uning tadqiqotlari natijasida "Koreys tilini etimologiyasini o'rganish" (1949) nomli kitobi chop etilib, ulkan muvaffaqiyat qozonadi. Mazkur kitobda asosan koreys tili va oltoy tillarining leksikasini qiyoslash orqali erishgan natijalari o'rin egallagan.

Uning o'limidan so'ng chop etilgan "Oltoy tillari asoslari" (I, II, III qismlar: 1952, 1957, 1966) kitobida lingvistik taqqoslash metodi orqali u koreys tili va oltoy tillaridagi fonemlarning o'zaro mutanosibligini, grammatik morfemlarni taqqoslash usuli bilan esa koreys tilini oltoy tillari oilasiga mansub ekanligini isbotlab bergan.

Ramstedtdan so'ng amerikalik tilshunos olim N.N.Poppe koreys tilining tuzilishida oltoy tillarining asoslari bor ekanligi g'oyasini tom ma'noda me'ros qilib olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. U o'zining "Oltoy lingvistikasiga kirish" nomli kitobida Ramstedtning fikrlariga to'liq qo'shiladi hamda koreys tilini boshqa tillarga nisbatan tungus tillariga yaqinroq ekanligini va shu bilan birga oltoy tillari asosiga ega ekanligi fikrini aniq bayon qilgan.

Aynan shu kitobida u o'zining bir qancha fikrlarini namoyon qilib, unda oltoy tillariga nisbatan koreys tilining egallashi mumkin bo'lgan 3 taxminiy variantni keltirgan:

²¹ O'sha manba, 4-b.

1) koreys tili tungus-manchjur, turk, mo'g'ul yoki boshqa oltoy tillari bilan o'zaro aloqadorligi mavjud;

2) qadimgi koreys tili ham yagona oltoy tillari oilasi tizimi yuzaga kelmasdanoq shakllangan;

3) koreys tili o'ziga qadimgi oltoy asoslarini "singdirgan"²².

Koreyada ham koreys tilining oltoy tillari bilan muvofiqligini o'rganish muhim masalalardan hisoblangan. Ushbu jarayon Koreya Yaponiyaning mustamlakachaligidan ozod bo'lganidan keyin (15 avgust, 1945 yil), aniqrog'i XX asrning 60 – yillaridan boshlangan. Mashhur koreys tilshunoslaridan biri Li Gi Mun o'zining "Koreys tilining rivojlanish tarixidan" nomli kitobida koreys tili qadimgi Koreya hududlarida istiqomat qilgan qabilalar tili Puyo va Xan tillarini o'zida mujassamlashtirganini alohida ta'kidlab o'tgan. Qadimgi koreys tilini tom ma'noda ikkiga ajratish mumkin: shimoliy – "puyo" hamda janubiy – "xan". Birinchi guruh tilida Manchjuriya, Shimoliy Koreya hududlarida istiqomat qilgan qabilalar so'zlashgan bo'lsa, "xan" tilida Janubiy Koreyada istiqomat qilgan qabilalar so'zlashgan. Ular keyinchalik uch xonlik davlati, ya'ni, Chinxan, Maxan, Pyonxan davlatlariga asos solishgan²³.

Rossiyada esa 1897-yilda Koreya bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgandan so'ng, xususan Sankt – Peterburgda koreys tilini o'rganish bo'yicha katta maktab faoliyat ko'rsatishni boshlagan. Mazkur tilshunoslik maktabi namoyondalaridan biri B.Ya.Vladimortsov o'z faoliyati davomida shunday ma'lumotlar to'plaganki, unda turk, mo'g'ul, tungus – manchjur va koreys tillarining kelib chiqishi, o'zaro aloqadorligi haqida bayon qilingan va bu

²² Алпатов В. М. Лингвистическое наследие Н. Поппе // ВЯ. 1992, №3. С.119-125.

²³ Джарылгасинова Р. Ш. Когурёсцы. (Историко-этнографическое исследование). Автореф. дисс. ... к. и. н. — М., 1962.

ko'plab baxs-munozaralarga sabab bo'lgan.

1927-yilga kelib esa, Ye.D.Polivanovning "Koreys va oltoy tillarining o'zaro aloqadorligiga doir" nomli maqolasi chop etilgan. Unda koreys tili va oltoy tillarining umumiy xarakteristikasi, xususan yuqorida keltirilgan til guruhlarining ham tipologik qirralari va shu bilan birgalikda koreys tili va oltoy tillarining o'zaro mutanosibliklari haqida so'z borgan. U mazkur maqolasida koreys tilini tungus-manchjur, mo'g'ul, turkiy-tatar tillari bilan o'zaro yaqinlik aloqalarini ochib bergan.

Polivanov keltirgan leksik materiallar nisbatan kam bo'lsada, ammo faktlarning ilmiy tadqiq etilishi natijasida koreys tilining oltoy tillari oilasida egallashi kerak bo'lgan munosib o'rinni belgilab bergan. Xususan, koreys tili leksikasining asosida morfema tarkiblarining qisqarish etaplarini ko'rsatib berdi²⁴. Bu hol esa, hozirgi zamon mo'g'ul tillari evolyutsiyasida ham namoyon bo'lmoqda.

Ye.D.Polivanovning o'zi esa 20-yillarning oxiridan boshlab kuchli ideologik bosim qurboniga aylanadi. 1937-yilga kelib, u repressiyaga uchraydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, koreys oltoy tillarining tarixiy – qiyosiy tadqiqoti borasida so'z ham bo'lishi mumkin emasdi.

Shu o'rinda yana bir rus olimi A.A.Xolodovichning koreys tilininig rivojiga qo'shgan ulkan xissasi haqida to'xtalsak. U koreys tilining tuzulishini, ya'ni fonetika, grammatika hamda leksikasini shu darajada o'rganganki, uning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari keyinchalik oltoyshunos olimlarni eng zarur materiallar bazasi bilan ta'minladi desak bo'ladi. Bu haqda uning «Материалы по грамматике корейского языка XV века»²⁵ nomli kitobida ko'plab ma'lumot olishimiz mumkin. Mazkur kitobda u koreys tilining XV asrdagi

²⁴ Алпатов В. М. Лингвистическое наследие Н. Поппе // ВЯ. 1992, №3. С.119-125.

²⁵ Холодович А.А. Материалы по грамматике корейского языка XV века. М., 1986. С.8-20.

holatini qadimgi solnomalardan o'rganib, bugungi kunga kelib qanchalik sayqallanib, rivoj topgani to'g'risida ham bir qator dalillarga duch kelamiz. U o'zining safdoshlari Ye.D.Polivanov va G.Y.Ramstedtlardan farqli o'laroq koreys tilining oltoy tillari bilan qardoshlik aloqalari haqida tadqiqot ishlari olib bormagan. G.Y.Ramstedtning 1939 yilda chop etilgan "Koreys tili grammatikasi" nomli kitobini A.A.Xolodovich rus tiliga tarjima qilgan va u 1951 yili nashrdan chiqib, keng ommaga havola etilgan.

A.A.Xolodovich tomonidan tuzilgan ilk lug'at hozirgi kungacha tilshunoslarning asosiy quroli bo'lib kelmoqda. «Очерк грамматики корейского языка» kitobi koreys tilining morfologiyasi, fonetikasi hamda sintaktikasisini o'rganishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Endi g'arb oltoyshunosligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u u 40-50 yillarga kelib G.Y.Ramstedt va N.N.Poppelarning xizmati bilan ancha yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan edi. G.Y.Ramstedt va N.N.Poppe tomonidan amalga oshirilgan ishlardan biri – bu turk-mo'g'ul hamda koreys tillaridagi fonetik mutanosibliklarni isbotlab berganliklaridadir.

Har bir narsaning qarama-qarshi tarafi bo'lgani kabi oltoyshunoslarning ham qarshi tarafdorlari bo'lib, ular antioltoyshunoslar deb nomlangan. Bu esa o'z navbatida G.Derfer va uning bir necha izdoshlari bilan nomi bilan bog'liq. G.Derfer, A.Vovin, S.Georg, Yu.Yanxunen kabi bir qator tadqiqotchilar oltoy tillarining o'zaro aloqadorligini asossiz deb hisoblaydilar²⁶. Bunday xulosaga kelishlariga sabab esa, oltoy tillaridagi so'zlarning o'zaro qiyoslanishidir. Turkiy, mo'g'ul, koreys va h.z. xalqlarning uzoq davrdan beri qardosh yashab kelishi, o'zaro muloqot va munosabatda bo'lishi, tabiiyki, biron tildan boshqasiga yangidan yangi so'zlarning kirib kelishiga zamin yaratgan. Bu esa o'z navbatida

²⁶ Bu tillarni faqatgina umumiy maydon va tipologik mavqe bog'lab turadi xolos, deya ta'kidlashgan.

o'zlashgan so'zlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Demakki, mazkur xalqlar o'zaro muloqot jarayonida qardosh xalqlarning leksikasiga duch kelishgan.

Antioltoychilarning fikricha, til guruhlarining o'zaro mutanosibliklari masalalari ko'rib chiqilayotganda, an'anaviy komparativistika me'yorlaridan chetlashgan holda, ya'ni tilni "asosiy", "yadroviy" va "pereferik" leksikalarga bo'linishini shart deb bilganlar. Bu jarayon tabiiyki oltoyshunoslarning tadqiqot ishlariga anchagina qiyinchiliklar tug'dirgan.

Oltoy tillarini o'rganishda so'zdagi muvofiq fonemalarning fonologik tarkibini o'rganishdek aspekt e'tibordan chetda qolgan. Tadqiqotlar natijasida to'plangan ko'plab ma'lumotlar avval takidlab o'tilmagan dalillarni, ya'ni so'zning fonetik muvofiqligini, shuningdek arxaizmalarga qarab oltoy tillarining klassifikatsiyasini tuzishdek imkoniyatni yaratib berdi. Unga ko'ra mo'g'ul, manchjur, turkiy, koreys, yapon tillarining fonologik tuzilishidagi o'ziga xosliklar, arxaik so'zlarning qo'llanilishi bugungi kunga kelib, shu so'zdagi mavjud unli va undoshlarning qay tarzda saqlanib qolingani yoki bo'lmasa o'zgarishga uchraganligini ko'rish mumkin.

Zamonaviy oltoy tillarining fonologik sistemasida bir qator umumiy mutanosibliklarni ko'rishimiz mumkin. Oltoy tillarida fonologik urg'u deyarli uchramaydi. Ammo, koreys va yapon tillarida bu so'zlarning musiqiy ohangda aytilishi shu tillarning o'ziga xos jixatlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birgalikda unli tovushlarning uzun – qisqaligi hamda ohangning baland – pasatligi ham bu tilning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Oltoy tillarining morfologiyasiga agglyutinatsiya, ya'ni so'z o'zagiga qo'shimchalarning qo'shilishi xarakterlidir. Shu o'rinda bir qator tipologik farqlar ham bor ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Agar, g'arbiy turkiy tillar

agglyutinatsiyaning klassik na'munasi bo'lib, fuziyaga ega bo'lmasada (ya'ni, morfemlarning qo'shilish usuli), mo'g'ul, manchjur, turkiy, koreys, yapon tillarda esa buning aksini ko'rishimiz mumkin. Mazkur tillarda fuzik holatlar bilan birgalikda morfonologik, morfologik holarlarni uchratishimiz mumkin.

O'zbek tili

Bormoq → boryapman

Koreys tili

가다 → 갑니다 [kada- kamnida]

Ko'rmoq → ko'ryapman

보다 → 봅니다 [po'da-po'mnida]

Yuqoridagi misollarda agglyutinatsiyaning yaqqol namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

2. Koreys tili sintaksisining o'rganilishi va sintagmatika

Sintagma – intonatsiya (ohang) va ma'no jihatdan yaxlit bo'lgan bir yoki bir necha so'zlardan iborat sintaktik birlik²⁷.

Sintagma gap ichida bir-birining ketidan kelib bir nafas bilan aytiladigan so'zlar guruhidir. Shuningdek, sintagma bir so'zdan ham hosil bo'lishi mumkin, u ritmik urg'uga ega bo'ladi, gap tarkibidagi sintagmalar bir- biridan pauzalar bilan ajraladi.

Sintagma nutq bilan, gapirish jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. U muayyan ritmik urg'u va pauza yordamida amalga oshiriladi. Sintagma birgina so'zdan ham tuzilishim mumkin. Shuningdek, so'z+ko'makchi kabi birikmalar ham sintagma hisoblanishi mumkin. Nutqdagi har qanday sintaktik hodisa ham sintagmatik kategoriyaga taalluqli bo'ladi.

²⁷ Ruscha-o'zbekcha lug'at. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi. A.Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti.:T-1984.

Sintagma nutq jarayoni bilan bog'liq bo'lgan sintaktik birlik bo'lganligi uchun sintagmani tashkil qilgan komponentlar yonma-yon turmog'i shart.

Nutqning asosiy (Sherba 1963), og'zaki nutqning dastlabki birligi (Nikolayeva 1977) hamda eshitilayotgan nutqda kommunikativ va ma'no farqlash vazifalarida keluvchi minimal birlik (Vinogradov 1977) hamdir.

Sintagmatika til sistemasi birliklarini nutq faoliyatida muayyan tartibda, ketma – ketlikdajoylashishi, o'zaro mantiqiy munosabatga kirishishidir... sintagmatika til birliklarini nutq jarayonida o'zaro bog'langan holda qo'llanishini tekshiradi²⁸.

Nutqda delimitatsiya uchun keng foydalaniladigan urg'uli va urg'usiz, uzun va qisqa bo'g'inlarni talaffuz qilish vositalaridan biri – sintagmatik bo'linishdir, deya ta'kidlaydi f.f.n. Ben Yon Suk “Koreys tilida ohang sintagmatikasi” nomli disseratsiyasida va unga quyidagicha ta'rif beradi:

Sintagmatik bo'linish – har bir sintagmatik birlikning potensial korrelyati (mazmuni boshqa tushuncha bilan munosabatdagina ochiladigan tushuncha) bo'lib, bu so'zlovchi tomonidan u yoki bu og'zaki matnni so'zlayotganda amalga oshirilishi yoki oshirilmaslgi mumkin.

Sintagmatik bo'linish lingvistik bo'linishlarning muhim bo'linishlaridan biri sifatida hali hamon tadqiqotchilarning qiziqishlariga sabab bo'lib kelmoqda. Shu bilan birgalikda uning mexanizmi, ajratish birligi – sintagmalar to'liq o'rganilmagan va baxs munozarali mavzulardan biridir.

Sintagmatik bo'linishlar nazariy va amaliy jihatdan o'rganiladi.

Nazariy nuqtai nazardan, sintagmatik bo'linish shartlari tadqiq qilinib, unda sintagmaning o'rni, uning so'z birikmalarida o'xshash va farqli tarafli o'rganilib, sintagmaning tarkibiy qismlari o'rganiladi. Sintagmalarning birligini yaratishda

²⁸ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T. 2010. b 241-243.

nutq ohangi vositasining roli tahlil qilinadi va h.z. Turli tillarda sintagmatik bo'linishga oid ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan.

Amaliy nuqtai nazardan esa, turli tillarni o'rgatish jarayonida tarjima nazariyasi sohasida sintaktik bo'linishlarni taqqoslab, ularning tahliliy natijalarini qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Jumlalarning sintagmatik bo'linishi ob'yektiv qonuniyatlarga asoslangan va umume'tirof etilgan fakt hisoblanadi. Ya'ni, har bir tilning o'z xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur tildagi jumlar ma'lum qonun-qoidalarga muvofiq sintagmalarga ajratiladi.

Koreys va o'zbek tillarini solishtirma tahlili qilaniyotganda quyidagi vazifalar bajarilishi kerak:

- 1) taqqoslanayotgan tillarning grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib, sintagmatik bo'linishlarning aniq qonuniyatlarini ishlab chiqish;
- 2) strukturaviy sintagmalarni o'ziga xos prosodik xususiyatlarini aniqlash;
- 3) ikkala tilda ham jumalarning tugallanganligi yoki tugallanmaganligini hamda so'roq ma'nosida keluvchi ohang sintagmalarining o'xshash va farqli taraflarini aniqlash.

Sintagmatika nafaqat sintaktik jihatdan gaplarni o'zaro bog'lashda, balki morfologik jihatdan ham bog'lanishda o'ziga xos o'ringa egadir. Buni esa Ribakov Mixail Anatolyevichning "Ot Strukturasida sintagmatik munosabatlar" mavzusida yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasida ko'rishimiz mumkin.

Morfemlarning birikish usuli orasidagi bog'liqlik morfologik sintagmatika va tilning grammatik tuzilishining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bu esa B.A.Serebrennikov tomonidan quyidagicha ta'kidlab o'tilgandi:

"Agar bir tilda morfemlarning turli usullari bilan birika olishi, ushbu usullarning mustaqil rivojlana olishi bilan ifodalansa, bunday usullarning

mavjudligi mazkur tilning strukturasi bog`liqdir”.

Matndagi leksik tarkib va ular sintagmatikasini yana bir nomzodlik dissertatsiyasida, ya’ni, A.E.Suprun o’zining “Leksik sintagmatika va matnning leksik tuzilishi” doirasida yaqindan tanishishimiz mumkin. Unda xususan, matnning leksik strukturasi tushunchasi uning paradigmatik va sintagmatik nuqtai nazaridan o’rganilishini ochib bergan.

O’zaro bog`liq matn deganda ma’no jihatdan tugallangan jumla hisoblanadi.

Ilk bora sintagmatik tadqiqot ishlari 80-yillarda O.S.Axmanova tomonidan olib borilgan bo’lib, mazkur ish *“Ilmiy matnda nutqiy ketma ketlikning sintagmatik kondensatsiyasi”* deb nomlanadi.

Faqatgina 90-yillarga kelibgina sintagmatik tadqiqotlar bilan shug’ullanish keng tarqalib, bu borada ko’plab dissertatsiya ishlari yoqlanadi. Masalan, N.D.Burvikova “Monologik matn qonuniyatlari” (1981 y.), S.G. Ter-Minasova “Funksional uslublar sintagmatikasi” (1980 y.) va h. z.lar.

Sintagmatikaga nutq va fikrlash jarayonida yagona ma’noviy bir butunlik kasb etuvchi fonetik birlik deya V.Sherba shunday ta’rif beradi.

Sintagma deganda, til birliklari: morfema, so’z, so’z birikmalari, jumalarning ketma-ketlikda kelishlari tushuniladi.

Gap mazmunining grammatik jihatdan to’g’ri ketma-ketlikda berilishi, murakkab gapdan tashqari sodda gapning o’zida ham mujassam bo’lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, sintagmatik tahlil gapda ichki mutanosiblikni ham taqozo etadi. Masalaning qiyin tarafi - fikrni bayon etish semantikasi bilan matndagi semantik munosabatlarni bir-biridan ajrata olishda. (agar bu zarur bo’lsa).

Ilmiy tilning sintagmatik xususiyatlari ham tadqiq etilib, bunda so’z birikmalari, jumla, matn ko’rib chiqiladi hamda ularning sintaktik munosabatlari

o'rganiladi.

Sintagmatik munosabat – til birliklari o'rtasida ketma-ketlilik va bir vaqtda sodir bo'layotgan harakat munosabatlaridir. Bu ma'lum bir til birliklarining boshqa til birliklari bilan ma'lum bir kontekstda munosabatga kirishishidir, ya'ni, “qo'shnichilik” qilishi. Sintagmatik munosabat jumla yoki matnda birliklarning bog'lanish qonuniyatidir.

Masalan, “Ahmedova aspirantlar forumida falsafiy harakterdagi savol berdi”. Mazkur jumlaning bo'laklarga ajratgan holda, “aspirant forum”, “Ahmedova berdi”, “falsafa xarakter” deya ayta olmaymiz. Chunki har bir so'z o'zining birikuvdagi mutanosiblik birligiga egadir, ya'ni leksik va grammatik xususiyatlari aks etilishi kerak. Ma'lum bir til birliklari ega bo'lgan barcha forma va ma'nolardan faqatgina o'zimizga tegishlisini olib, foydalanamiz.

Koreys tili grammatikasini ilk bora G.Y.Ramstedt o'rgangan bo'lib, keyinchalik uning kitobini rus tiliga A.A.Xolodovich tomonidan tarjima qilinganligini yuqorida aytib o'tgandik. U o'zining «Очерк грамматики корейского языка» nomli kitobida koreys tilida gap tuzilish, uning agglyutinativ til bo'lgani bois “Ega,Aniqlovchi,Kesim”dan tarkib topganligini yoritib bergan. Bunday toifaga kiruvchi tillarda kesim doimo gap oxirida kelib, grammatik vositalar, zamonni bildiruvchi zamon qo'shimchalari ham aynan kesimga qo'shiladi.

Xususan, I Ik Sop o'zining “Koreys tili grammatikasi” (이익섭, “한국어 문법”. 서울대학교) kitobida koreys tilida gap tuzilishining asosi ‘주어 – 목적어 – 서술어’ [‘chuo – mokchogo – sosulo’] ya'ni, *ega – aniqlovchi – kesim*dan iborat deb ta'kidlaydi. Jumla avvalida ega kelib, jumla oxirida kesim keladi va ular

ikkisining o'rtasida esa aniqlovchi joy oladi²⁹.

Dunyoda ko'plab tillar mavjud bo'lib, ularning gap tuzilish tartibi ular qaysi til oilasiga mansub ekanligiga qarab, SVO,VSO yoki SOV kabi turlarga bo'linadi³⁰. Ya'ni, S (subject, ega 주어), O (object, aniqlovchi 목적어) va V (verb, kesim 서술어). Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, I Ik Sop koreys tilini SOV tarkibli tillar oilasiga mansub ekanligini va gaplar aynan shu ketma-ketlikda tuzilishini ko'rsatib o'tgan. Jumlar orasida eng sodda jumla ega va kesimdan iborat bo'lgan jumladir³¹.

I Ik Sopning koreys tili (grammatika, sintaksis) ga bag'ishlangan ko'plab ilmiy adabiyotlar muallifi hisoblanib, u koreys tilshunosligining rivojlanishiga o'zining samarali mehnatlari bilan katta hissa qo'shgan, tilshunos olimdir. Xususan, 국어 문법론 강의³² (*Koreys tili nazariy grammatikasidan ma'ruzalar*) kitobida koreys tilida gap tuzilishi, uning tarkibi, murakkab gaplarning turlarini aniq ravshan va asosiysi sodda tilda tushuntirib bergan.

I Ik Sop kabi koreys tilshunoslarining yorqin namoyondalaridan biri – Nam Gi Shim (남기심) dir. U o'zining sermashaqqat mehnatlari bilan koreys tilini fonetikasidan tortib sintaksisigacha mukammal o'rgangan va bu bilan u o'z ona tiliga qanchalik mehr qo'yganini, uni ardoqlashini o'z ilmiy asarlarida namoyon eta olgan. Ayniqsa, sintaksisga bag'ishlangan 국어문법의 탐구 [Kugo munpobe thamgu] (*Ona tili grammatikasi tadqiqoti*), 표준국어 문법론 [Phyojun kugo

²⁹ 이익섭. 한국어 문법. 서울대학교출판부. 2004. 1쪽. (*I Ik Sop., Koreys tili grammatikasi*).

³⁰ O'sha manba, 2 bet.

³¹ O'sha manba, 339 bet.

³² 이익섭. 국어 문법론 강의. 공저 학연사. 1999년. (*I Ik Sop, Koreys tili nazariy grammatikasidan ma'ruzalar. 1999*).

munpopron] (*Adabiy til nazariy grammatikasi*) hamda 현대 국어 통사론 [Hyonde kugo thongsaron] (*Zamonaviy koreys tili sintaksisi*) kitoblari ayniqsa diqqatga sazovordir.

국어문법의 탐구 [Kugo munpobe thamgu] (*Ona tili grammatikasi tadqiqoti*), nomli kitobi uning sintaksisga oid kitoblarining debochasidir. Mazkur kitobda grammatikaga oid barcha unsurlar atroflicha tushuntirilib, koreys tili sintaksisi to'laqonli yoritilgan. Ayniqsa, koreys tilining oltoy tillari bilan o'zaro aloqasini va agglyutinativ til ekanligi³³ hamda uning xususiyatlarini namoyon qilgan.

현대 국어 통사론 [Hyonde kugo thongsaron] (*Zamonaviy koreys tili sintaksisi*) kitobida sintaksisga doir fikrlarini keltirib, gapning shakllanishi va gap tarkibini mukammal darajada ilmiy asoslab bergan. Unda xususan, gap shakllanishida nimalarga alohida ahamiyat berish kerakligini, gapning yaxlit bir butunlik kasb etishida so'zlarning o'rni³⁴ va grammatik kategoriyalardan foydalanish tartibini asoslab bergan.

표준국어 문법론 [Phyojun kugo munpopron] (*Adabiy til nazariy grammatikasi*) kitobida esa, ayniqsa, gap ichida gap ya'ni 문장 속의 문장³⁵ [Munjang soqe munjang] nomli bo'limida gap bo'laklarini batafsil yoritib bergan.

Shuningdek uning 당신은 우리말을 새롭고 바르게 쓰고 있습니까? (셈터. 1995) [Tangshinin urimaryl seropko parige ssigo issimnikka?] (*Siz bizni tilimizni o'rganayotib to'g'ri yozyapsizmi?*) deb nomlangan kitobi ham sintaksisga oid kitoblaridan biri sanaladi.

³³ 남기심. 국어 문법의 탐구. 태학사. 1996. 9 쪽. (*Nam Gi Shim, Ona tili grammatikasi tadqiqoti*).

³⁴ 남기심. 현대 국어 통사론. 태학사. 2001. 230 쪽. (*Nam Gi Shim, Zamonaviy koreys tili sintaksisi*).

³⁵ 남기심. 표준국어 문법론. 탑출판사. 2001. 375 쪽. (*Nam Gi Shim, Adabiy til nazariy grammatikasi*).

Koreys tilida gap tarkibini mukammal o'rgangan olimlardan yana biri – 정기철 [Chong Gi Chhol] dir. Uning sintaksisga oid kitobi 문장의 기초 [Munjange kichho], ya'ni, “Gap asosi” deb nomlanadi. Umuman, gap deganda nima tushuniladi? Gap o'zi nima? To'g'ri tuzilgan gap asosini nimalar tashkil etadi va uning qanday shartlari bor? – degan savollarga batafsil javoblarni yoritgan. Xususan, unda shunday keltirilgan jumlani ko'rishimiz mumkin:

좋은 문장이 어떤 문장인지 몇 마디 말로 단언하기는 매우 어려운 일이다. 문장은 단순히 쓰기의 결과물이 아니라 글쓴이와 읽는이의 상호 교류적 과정이요 결과물이기 때문이다. 따라서 글쓴이의 사상 배경, 글 쓸 당시의 상황과 읽는이의 글 읽는 동기와 목적, 세계관 등 많은 조건들이 고려되어야 한다. 그리고 글쓴이의 개성(문체)이 다 다르기 때문에 그 점도 고려하여야 좋은 글의 기준을 세울 수 있다³⁶.

To'g'ri tuzilgan gap qanday gap ekanligini bir ikki og'iz so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Bir jumlaning shunchaki yozilishi uning tog'ri tuzilgan gap ekanligidan dalolat bermaydi. Uning yozilishi, o'qilishi va gapning maqsadi hisobga olinishi kerak. Shu bilan birgalikda gapning tuzilishi jihatidan biri ikkinchisidan farq qilinishi ham hisobga olinsa, to'g'ri jumla tuzilishi mumkin.

Koreys tilini tadqiq qilgan yana bir tilshunos olim – 서정수 [So Djong Su] dir. So Djong Suning ilmiy asari 국어 문법 [Kugo munpop] (*ona tili grammatikasi*) deb nomlanib, u juda katta hajmdagi ilmiy asardir. Koreys tilini, umuman olganda koreys tilining fonetikasi, orfografiya, orfoepiya, morfologiya, sintaksisini tom ma'noda o'ta mukammal darajada yoritib bera olgan ilmiy asar desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur kitob shunchalik mukammal, aniq va

³⁶ 정기철. 문장의 기초. 서울. 도서출판 열락. 2004. (*Chong Gi Chhol, Gap asosi*).

ravshan yozilganki, unda hoh til o'rganuvchi hoh tadqiqotchi bo'lsin, o'zini qiziqtirgan barcha savollarga osongina javob topishi mumkin.

So Djong Su gapga quyidagicha ta'rif beradi:

문장이 무엇인지를 말하기도 결코 쉽지 않다³⁷. “문장이란 것은 완전한 생각을 나타내는 한 무리의 낱말이다”³⁸.

Gap nima ekanligini aytish unchalik oson emas. “Gap tugallangan fikrning bir jumlada ifodalanishidir” – deya izohlagan.

Yuqorida nomi keltirilgan tilshunoslardan tashqari, quyida nomi keltiriladigan tilshunoslar ham koreys tilida murakkab gaplar haqida o'z izlanishlarini o'zlarining kitoblarida batafsil yoritib berishgan. Ular xususan quyidagilar:

권재일³⁹. 국어의 복합문 구성 연구. (*Kvon Che Il, Ona tilida murakkab gaplar tadqiqoti*), 집문당. 1985, 이주행⁴⁰. 한국어 문법 연구. 중앙대출판부. 2000. (*I Ju Heng, Koreys tili grammatikasi*), 이주행⁴¹. 한국어 문법의 이해. 도서출판. 2004. (*I Ju Heng, Koreys tili grammatikasini tushunish*), 민현식⁴². 국어 문법 연구. 역락출판사. 1999. (*Min Hyon Shik, Ona tili grammatikasi tadqiqoti*), 정동완⁴³. 국어 복합문위 의미 연구. 서광학술자료사. 1993. (*Jong Tong Van, Onatili murakkab*

³⁷ 서정수. 국어문법. 서울. 한양대학교출판원. 1996. 16 쪽. (*So Djong Su, Ona tili grammatikasi*).

³⁸ O'sha manba, 17-b.

³⁹ 권재일. 국어의 복합문 구성 연구. (*Kvon Che Il, Ona tilida murakkab gaplar tadqiqoti*).

⁴⁰ 이주행. 한국어 문법 연구. 중앙대출판부. 2000. (*I Ju Heng, Koreys tili grammatikasi*).

⁴¹ 이주행. 한국어 문법의 이해. 도서출판. 2004. (*I Ju Heng, Koreys tili grammatikasini tushunish*).

⁴² 민현식. 국어 문법 연구. 역락출판사. 1999. (*Min Hyon Shik, Ona tili grammatikasi tadqiqoti*).

⁴³ 정동완. 국어 복합문위 의미 연구. 서광학술자료사. 1993. (*Jong Tong Van, Onatili murakkab gaplarning ma'noviy tadqiqoti*).

gaplarning ma'noviy tadqiqoti), 윤석민⁴⁴. 현대국어의 문장종결법 연구. 집문당. 2000. (*Yun Sok Min, Zamonaviy koreys tilida gaplarning bog'lanishi*), 오준규⁴⁵. Aspects of Korean Syntax. 서울. 1971. (*O Jun Gyu, Koreys tili sintaksisi aspekti*), 박갑수⁴⁶. 우리말, 바로 써야 한다. 집문당. 1995. (*Pak Kap Su, Bizning tilimiz, to'g'ri yozish kerak*), 송석중⁴⁷. 한국어 문법의 새 조명. 지식사업사. 1993. (*Song Sok Jung, Koreys tili grammatikasining yangi talqini*), 한호석⁴⁸. 이렇게 해야 바로 쓴다. 한겨레신문사. 1995. (*Xan Hyo Sok, Bunday yozilsagina to'g'ri bo'ladi*), 황경식⁴⁹. 재미있는 논리와 논술이야기. 열림원. 1993. (*Xvang Kyong Shik, Qiziqarli mantiq va bayon*).

Kim N.D. K voprosu izucheniya sintaksisa I sintaksicheskix yedinic // v mire Koreyevedeniya. 2008., 168-180

Kim N.D. K voprosu ob osobennostyax strukturi slojnogo pred-ya v kor.yaz.e // Izvestiya koreyevedeniya v Centralnoy Azii. Almaty. Vipusk 7 (15) 2008. str 191-208

Kim N.D. grammaticheskaya I funktsionalno-semanticheskaya priroda glavnix chlenov predlojeniya v kor-m yazike.: Avtorefer.diss...kand.filol.n., T.,

⁴⁴ 윤석민. 현대국어의 문장종결법 연구. 집문당. 2000. (*Yun Sok Min, Zamonaviy koreys tilida gaplarning bog'lanishi*).

⁴⁵ 오준규. Aspects of Korean Syntax. 서울. 1971. (*O Jun Gyu, Koreys tili sintaksisi aspekti*).

⁴⁶ 박갑수. 우리말, 바로 써야 한다. 집문당. 1995. (*Pak Kap Su, Bizning tilimiz, to'g'ri yozish kerak*).

⁴⁷ 송석중. 한국어 문법의 새 조명. 지식사업사. 1993. (*Song Sok Jung, Koreys tili grammatikasining yangi talqini*).

⁴⁸ 한호석. 이렇게 해야 바로 쓴다. 한겨레신문사. 1995. (*Xan Hyo Sok, Bunday yozilsagina to'g'ri bo'ladi*).

⁴⁹ 황경식. 재미있는 논리와 논술이야기. 열림원. 1993. (*Xvang Kyong Shik, Qiziqarli mantiq va bayon*).

2006

Basko N.S., Djong Li Xoya. Sravnitelny analiz virajeniya prichinno-sledstvennix otnosheniy v russkom I koreyskom yazikax. Seulskiy universitet. Respublika Koreya. 2008

Rudnitskaya Ye.L. SPORNIYE VOPROSI KOREYSKOY GRAMMATIKI I teoreticheskiye problemy I metody ix resheniya. "vostochnaya literatura" RAN., M., 2010.

Rudnitskaya Ye.L. Sintaksicheskiy I semanticheskiy analiz predlozeniy s opusheniyem g;agolov rechi ('-kona' "cit govorit") v koreyskom yazike.// voprosy yazikoznaniya N2., 2002., c.90-102.

Rudnitskaya Ye.L. Problema podlejashego v koreyskom // Rossiyskoye koreyevedeniya. N4/ Koncevich L.R.(red). M., 2004, c 293-310

Rudnitskaya Ye.L. Osobennosti sintaksicheskoy I informacionnoy struktury (aktualnogo chleneniya) v predlozeniyax so stativnymi predikatami psixologicheskogo sostoyaniya v koreyskom.// Voprosy yazikoznaniya. N4. 2005. c 39-56

Martin S.E. A reference grammar of Korean. A grammar an history of the Korean. Cambridge. 1992.

Kang M.Y. Topics in Korean syntax: phrase structure, variable binding and movement. Ph D Diss. MIT. 1988.

Kim J.B. A constaint – based and head – driven analysis of multiple nominative constructions in Korean. Ms.Soul. 2000.

Kim M.J. Event structure and the internally – headed relative clause construction in Korean and Japanese. Ph D Diss. Univ. of Massachussets. 2004.

Yang B.S. Morphosyntactic phenomena of Korean in the role and reference grammar. Ph D Diss. SUNY at Buffalo. 1994.

I BOB bo'yicha xulosalar:

1. Koreya ko'p asrlar davomida Xitoyning mustamlakasi bo'lib, o'zining shaxsiy alifbosiga ega bo'lmagan.
2. U ilmiy jihatdan nisbatan keyinroq o'rganila boshlandi va tadqiqotlar natijasida uning oltoy tillari oilasiga mansub ekanligi aniqlandi.
3. Koreys tili oltoy tillari oilasiga mansub ekanligi shuni ko'rsatadiki, unda gaplarning tuzilishi sintagmatik jihatdan turkiy tillarga yaqin turadi.
4. Koreys tilidagi ega – ikkinchi darajali bo'lak – kesim strukturasi uni turkiy tillar bilan aynan bir xil ekanligini ko'rsatadi.
5. Koreys tilining rivojlanishiga nafaqat koreys olimlari, balki rus olimlarining ham qo'shgan xissasi beqiyosdir. Xususan, Polivanov Ye.D., Xolodovich A.A.larning mazkur tilning rivojlanishida tutgan o'rnini alohida ta'kidlab o'tish lozim.
6. Ilk bora sintagmatik tadqiqot ishlari 80-yillarda O.S.Axmanova tomonidan olib borilgan bo'lib, mazkur ish *“Ilmiy matnda nutqiy ketma ketlikning sintagmatik kondensatsiyasi”* deb nomlanadi.
7. Faqatgina 90-yillarga kelibgina sintagmatik tadqiqotlar bilan shug'ullanish keng tarqalib, bu borada ko'plab dissertatsiya ishlari yoqlandi.

II BOB. Gapning sodda va murakkab gaplarga bo'linish xususiyatlari

1. Sodda gap sintaksisi

Gap ma'lum fikrni ifodalab, nutqning bir qismini tashkil etadi. Til, nutq orqali kishilar o'z fikrlari, maqsadlari, his-hayajonlarini ifodalaydilar. Shuning uchun ham til “amaliy hayotiy ong” hisoblanadi. Til kishilar o'rtasida o'zaro munosabatni yuzaga keltiruvchi qurol vazifasini o'taydi, u “kishilar orasidagi eng muhim aloqa vositasi” bo'lib xizmat qiladi.

Fikr turlicha ifodalanadi: fikr sodda yoki murakkab gaplar orqali, darak, so'roq gaplar orqali, to'liq yoki to'liqsiz gaplar orqali ifodalanishi mumkin.

Gapning asosiy belgilari, uning so'z yoki so'z birikmalaridan farqi nimada? Gapning asosiy belgilari – unda nisbiy fikr tugalligi va predikativlikning mavjud bo'lishi, grammatik jihatdan ma'lum qonun va qoidalar asosida shakllanishi, o'ziga xos ohangga ega bo'lishi shartdir. Gapning bu xususiyati ko'pchilik tillar uchun umumiydir. Ammo bu belgilarning turli tillarda namoyon bo'lishi va ularning ahamiyati, o'rni turlichadir.

Har bir gapda ma'lum fikr, maqsad yoki his-hayajon ifodalanadi. Aks holda gap emas, so'z birikmasi bo'lib qoladi. (Qiyoslang: 수미가 왔어요. – Sumi keldi. 수미의 책 – Sumining kitobi.)⁵⁰. Ma'lum maqsad yoki his hayajon sodda yoki

⁵⁰ 정기철. 문장의 기초. 서울. 도서출판 열락. 2004. 19 쪽. (*Chon Gi Chhol, Gap asosi*).

murakkab gap shaklida ifodalanishi mumkin.

Gapning o'ziga xos belgilaridan yana biri unda maxsus ohang (intonatsiya)ning bo'lishidir. Har bir gap ohang jihatdan shakllangan bo'ladi. Gapning boshlanishi va tugallanishi uning ohangidan sezilib turadi. Gap oxirida ohang ham tugallanadi. Ko'pchilik tillarga xos bo'lgan ushbu xususiyatni o'zbek tilida ham uchratish mumkin.

Chon Gi Chhol (정기철) unga quyidagicha ta'rif beradi:

좋은 문장의 요건.

좋은 문장이란 일반적으로 정확한 어휘로 글쓰는 이의 동기와 목적에 맞도록 표현 – 전달된 글을 말한다. 좀 더 구체적으로 말한다면 좋은 문장의 성립 역시 “무엇을” 썼느냐, “어떻게” 썼느냐의 문제라고 할 수 있다. 즉, 좋은 문장은 ‘무엇을’(내용)과 ‘어떻게’(표현 방식)를 모두 갖추고 있어야 한다⁵¹.

To'g'ri tuzilgan jumlaning ahamiyatli tarafi.

To'g'ri tuzilgan jumla, avvalam bor, aniq tanlangan so'zlarning sabab va maqsadiga to'g'ri keladigan ifodalarni o'zida yaqqol namoyish etishiga aytiladi. Ilmiyroq qilib aytadigan bo'lsak, to'g'ri tuzilgan jumlaning asosida “nimani?” “qanday?” yozish muammosi yotadi. Ya'ni, to'g'ri tuzilgan jumlaning asosida “nimani?”(mazmun) va “qanday?”(ifoda usuli) degan savollarni ifodalovchi mazmun yotishi kerak.

So'nggi paytlarda ko'plab o'quv fanlarining rivojlanishi, xususan, oliy ta'lim muassasasida lingvistik yo'nalishlarga bo'lgan qiziqishning kun sayin oshib borishi, til va madaniyatning o'zaro ta'sirida namoyon bo'lyapti.

Ma'lum bo'lganidek, nutq jarayonida jummlar o'zaro turli munosabatlarga

⁵¹ 정기철. 문장의 기초. 서울. 도서출판 열락. 2004. 23 쪽. (*Chon Gi Chhol, Gap asosi*).

kirishishi mumkin. Koreys tilidagi murakkab gaplar kommunikativ birlik sifatida faqatgina tugallangan ohang bilan xarakterlanmasdan, balki jumlaning tugallanganligini bildiruvchi xis-hayajon qo'shimchalar bilan ham ifodalalanadi.

So'zlar grammatik vositalar yordamida o'zaro birikib, ibora yoki jumla xosil qilar ekan, tabiiyki, ular o'zaro ma'lum munosabatga kirishishadi. Bunday munosabatlar tilda juda ham ko'plab uchraydi va har bir munosabatning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir. Gapdagi munosabatlar kamida ikkita unsurdan tashkil topadi, aks holda hech qanday munosabat yuzaga kelmagan bo'lardi. Gapdagi grammatik munosabatga kirishgan bo'laklar gap bo'laklari bo'lib, ular birdan ortiq so'zdan tashkil topgan gaplarni tadbiiq qiladi. Yolg'iz bir so'zdan iborat bo'lgan gaplarda (네 [ne] (*ha*), 아니오[anio] (*yo'q*))⁵² gapning bo'laklari haqida so'zlash mumkin emas. Chunki gapning bo'laklari gap tarkibidagi so'zlarning ma'lum qonun – qoidalar asosida o'zaro bog'lanishidan hosil bo'lgan sintaktik butunlikning qismlaridir.

Ma'lumki, gapdagi so'zlar bir birlari bilan teng yoki tobe aloqaga kirishishlari mumkin. Gapni bo'laklarga ajratishda so'zlarning tobe aloqaga kirishishi asosiy mezon sanaladi.

Demak, gapning bo'laklari tobe aloqadagi turli xil so'z bog'lanmalari asosida gapda tug'iladigan va gapning tarkibiy unsuri o'rtasidagi munosabatlarni ifoda etadigan sintaktik kategoriyadir.

Gap bo'laklarining quroli - so'zlardir. So'zlar gap tarkibida bir birlari bilan o'zaro sintaktik aloqaga kirishgandagina nutqda gapning u yoki bu bo'lagi vazifasida kela oladi.

⁵² 한효석. 이렇게 해야 바로 쓴다. 한겨레신문사. 1995. 23 쪽. (*Xan Hyo Sok, Bunday yozilsagina to'g'ri bo'ladi*).

Gap bo'laklarini turini belgilashda uning qanday so'z turkumi bilan ifodalangani va grammatik shakliga e'tibor beriladi. Shu bilan bir qatorda sintaktik aloqaga kirishuvchi unsurlarning semantik xususiyatlari ham inobatga olinishi lozim.

Koreys tilida ham boshqa tillar singari gap bo'laklari, gap qurilishidagi vazifalariga ko'ra, ikki turga bo'linadi: bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. Bosh bo'laklar, ya'ni, ega (주어-[chuo]) va kesim (서술어-[sosuro]) gapni tashkil etishda muhim ro'l o'ynab, gapni tashkil etuvchi asosiy yadro hisoblanadi.

Gapda bosh bo'laklardan tashqari boshqa bo'laklar ham qatnashishi mumkin. Lekin ular gapni tashkil etishda, gapni hosil qilishda asosiy ro'l o'ynamaydi. Shuning uchun ham ular gapning ikkinchi darajali bo'laklari deb yuritiladi.

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarni ma'nosini aniqlashtirish, fikrni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ular o'z vazifalariga ko'ra, uch xil bo'ladi: aniqlovchi (관형어 –[kyujongo]), to'ldiruvchi (목적어 – [po'o]), hol (상황어 – [sang hvanngo]). Har bir ikkinchi darajali bo'lakning o'z leksik – semantik va grammatik xususiyatlari bor. (bu haqda keyinroq so'z yuritimiz.)

Bosh bo'laklar bilan ikkinchi darajali bo'laklarning o'zaro munosabatida bosh bo'laklar – hokim, ikkinchi darajali bo'laklar esa ularga tobe. Bosh bo'laklarning o'zaro munosabatida ega – hokim, kesim esa unga tobe. Demak, ega – mutloq hokim: u o'z tarkibidagi ikkinchi darajali bo'laklarga ham, kesimga ham hokim. Kesim esa faqat o'z tarkibidagi ikkinchi darajali bo'laklarga hokim.

Bosh bo'laklar ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokisiz, ayrim, mustaqil gapni tashkil eta oladi. Bunday gaplar sodda gapning yig'iq turini tashkil qiladi,

masalan:

마이클 씨는 호주인입니까?⁵³

[Mayiki shinin hojuin imnikka?]

Janob Mayk, Avstraliyalikmisiz?

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarsiz alohida, to'liq gapni tashkil eta olmaydi. Ular gapda bosh bo'laklarga bog'liq holda qatnashadi. Ikkinchi darajali bo'laklar qatnashgan gaplar sodda gapning yoyiq turini hosil qiladi.

수미는 엄마의 말씀을 진심으로 듣고 있었다.⁵⁴

[Suminin ommae malssimil jinshimiro titko issotta]

(Sumi onasining gaplarini chin yurakdan eshitib o'tirardi.)

Demak, sodda gaplar, tarkibida bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning qatnashishiga qarab, ikki xil bo'ladi: *yig'iq gap* 간결한 문장 [kangyol han munjang] va *yoyiq gap* 충실한 문장 [chhung shil han manjang].⁵⁵

Koreys tilida gaplarning grammatik nuqtai nazardan to'g'ri tuzilishida so'zlarning ketma ketlikda to'g'ri qo'yilishi va ifodalanishi muhim ro'l o'ynaydi. Bu esa o'z navbatida gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini ma'noviy va grammatik jihatdan to'g'ri bo'g'lanishini ta'minlovchi muhim bir vositadir.

So'zlar tartibi gap bo'laklarining nutqda o'rinishini bildiradigan sintaktik hodisadir. Koreys tilida so'zlar tartibi erkin, biroq unda so'zlarning bog'liq tartibi ham uchraydi. Bu hol koreys tilida gap qurilishining o'ziga xos xususiyatini ko'rsatadi. Ba'zi bo'laklar gapda turli o'rinlarda kela olsa, ayrim bo'laklar faqat muayyan o'rinda keladi. So'zlarning sintaktik vaziyati, vazifasi

⁵³ 이해인. 기쁨이 열리는 창. 서울. 마음산책. 2004. 78쪽. (*I He In, Baxtga ochiluvchi derazalar*).

⁵⁴ 박혜란. 여자과 남자. 서울. 웅진닷컴. 2003. 67쪽. (*Pak He Ran, Ayol va Erkak*).

⁵⁵ 남기심. 현대 국어 통사론. (*Nam Gi Shim. Koreys tili sintaksisi*) 서울. 2002년, 67쪽.

maxsus grammatik vositalar (turlovchilar, tuslovchilar, ko'maakchilar kabi) asosida belgilanganda, so'zlar tartibi erkin bo'ladi. So'zlarning sintaktik vaziyati, vazifasi maxsus grammatik vositalar asosida emas, balki gapdagi o'rniga ko'ra belgilanganda, so'zlar tartibi bo'g'liq bo'ladi.

So'zlar tartibi sintaktik va stilistik vazifalarni bajaradi.

Erkin tartibda so'zlar o'rnining almashinishi grammatik holatni va gapning mazmunini butunlay boshqa qilib yubormaydi, balki gapdagi biror bo'lakka alohida diqqat qilinganini ko'rsatib, umumiy fikrga qo'shimcha tus beradi. Quyidagi gapning bo'laklarini almashtirib ko'raylik:

- 1) 어제 언니는 비행기로 서울에서 미국으로 갔어요⁵⁶.

Hol → Ega → To'ldiruvchi → Hol → Hol → Fe'l

Kecha opam samolyotda Seuldan Amerikaga ketdi (boshqa yerga emas, Amerikaga)

- 2) 어제 언니는 비행기로 미국에 서울에서 갔어요⁵⁷.

Hol → Ega → To'ldiruvchi → Hol → Hol → Fe'l

Kecha opam samolyotda Amerikaga Seuldan ketdi (boshqa yerdan emas, Seuldan)

- 3) 어제 언니는 서울에서 미국에 비행기로 갔어요.

Hol → Ega → Hol → Hol → To'ldiruvchi → Fe'l

Kecha opam Seuldan Amerikaga samolyotda ketdi (boshqa narsada emas, samolyotda)

⁵⁶ 강영계. 청소년을 위한 철학이야기. (*Kang Yong Ge, O'smirlar uchun falsafiy suhbat*) 서울. 서광사. 2004. 43 쪽.

⁵⁷ O'sha misol va keyingilari avtor analizi.

4) 어제 비행기로 서울에서 미국에 언니는 갔어요.

Hol → To'ldiruvchi → Hol → Hol → Ega → Fe'l

Kecha samolyotda Seuldan Amerikaga opam ketdi (boshqa kishi emas, opam)

5) 언니는 비행기로 서울에서 미국에 어제 갔어요.

Ega → To'ldiruvchi → Hol → Hol → Hol → Fe'l

Opam samolyotda Seuldan Amerikaga kecha ketdi (boshqa kuni emas, kecha)

Yuqoridagi gaplarda so'zlar tartibining o'zgarishi mantiqiy urg'u bilan bog'liq. Mantiqiy urg'u gapdagi mazmunan ahamiyatli bo'lakni alohida ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Mantiqiy urg'uli bo'lak yuqori ton bilan aytilib, undan keyin qisqa pauza qilinadi. Mantiqiy urg'u kesimga tushganda, tartib o'zgarmaydi, kesim turgan joyida yuqori ton bilan aytiladi. Mantiqiy urg'u ega, to'ldiruvchi yoki holga tushganda, ular kesimning yoniga keltiriladi. Faqat aniqlovchini kesimning yoniga keltirib bo'lmaydi. U odatda o'z aniqlanmishining oldida turadi.

Mazmunan ahamiyatli bo'lakni doim kesim yoniga keltirilishi shart emas. Ba'zan bu bo'lak tartib o'zgarishsiz, turgan joyida ham mantiqiy urg'u olishi mumkin.

Adabiy tildagi erkin tartibning taraqqiyotida jonli so'zlashuv nutqining ta'siri ham bor. Jonli so'zlashuv nutqida so'zlovchi suhbatdosh uchun zarur deb bilgan ma'lumotni, muhim narsa-hodisani oldin, uncha zarur bo'lmagan hodisani keyin aytadi.

Koreys tilida so'zlar tartibi asosan erkin bo'lsa ham, sodda gapda har bir gap bo'lagining odatda qo'llanadigan o'z o'rnini bor. Bu gapning tarkibi, gap bo'lagining sintaktik ifodalanish usuli, u bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa

so'zlarning o'rni kabi hodisalar bilan belgilanadi. Shu asosda so'zlarning to'g'ri (odatdagi) tartibi va teskari (odatdagidan chekinish) tartibi farq qilinadi. Teskari tartib *inversiya* deb ham yuritiladi.

To'g'ri tartibni normal hol, teskari tartibni – inversiyani anormal hol deb tushunish to'g'ri emas. So'zlar tartibining bu ikki turi nutqda o'z qo'llanish o'rinlariga ega. To'g'ri tartib ko'proq ilmiy asarlar uchun xarakterli bo'lsa, inversiya badiiy asarlar uchun xarakterlidir. Gapdagi so'zlarning har qanday o'rin almashtirish inversiya bo'lavermaydi. Masalan, *bir hafta – yeti kun* gapidagi so'zlar o'rnining *yeti kun – bir hafta* tarzida o'zgartirilishi inversiya emas. Bular konstruksiyalarni qayta tuzish deb hisoblanishi kerak.

Inversiyada so'zlar o'rnining o'zgarishi, almashinishi ularning gapdagi sintaktik vazifalarini butunlay boshqa qilib yubormaydi. Balki, u yoki bu bo'lakning darajasini, rolini, ahamiyatini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Yuqorida aytganimizdek, bosh bo'laklar ega va kesimdan iboratdir. Shunday ekan, egani nima ekanligini va u gapda qanday va qaysi holatlarda namoyon bo'lishini ko'rib chiqaylik.

Ega 주어 [Chuo] gapning bosh bo'laklaridan biri bo'lib, fikr ifodasida, gap tuzumida alohida o'rin tutadi. U gapning nima haqda aytilganini, fikrning nima to'g'risida bayon etilganini ko'rsatuvchi bosh bo'lakdir.⁵⁸ Demak, ega fikr ob'yektini, nutq predmetini bildiradi. Bunda predmet keng ma'noda tushuniladi va u narsa, shaxs, voqea – hodisa, belgi – xususiyat, harakat – holat, son – miqdor va hokazolarning nomini ham o'z ichiga oladi. Ega – ot, son, fe'l, olmoshning sintaktik vazifasidir. Ammo, yuqorida sanab o'tgan turkumlarimizning barchasi baravariga ega vazifasida kela olmaydi. Faqat otgina ega bo'lib kelishi, uning birinchi sintaktik vazifasi hisoblanadi. Qolgan

⁵⁸ 이익섭. 국어 문법론 강의. 공저. 학연사. 1999. 45쪽. (*Ilk Sop, Nazariy grammatikadan ma'ruzlar*).

soʻz turkumlarining ega vazifasida kelishi ularning ikkinchi sintaktik vazifalariga kiradi. Demak, ega deganda avvalam bor ot tushunilishi sintaktik nuqtai nazardan ham tasdiqlanadi. Shunday ekan, egani tahlil qilishni otdan boshlaymiz.

Ega qanday soʻz turkumi bilan ifodalanishi jihatidan quyidagicha boʻladi:

O t e g a. Ot oʻz leksik - grammatik maʼnolariga koʻra, ega vazifasida qoʻllanishga juda mos keladigan soʻz turkumidir. Zamonaviy koreys tilini tadqiq qilishda albatta matnlarga yuzlanamiz. Koreys tilidagi har qanday tipik matn tahlil qilinganda, kuchi jihatidan yozma uslubga teng boʻlgan quyidagi natijalarga erishildi:

1) koʻp hollarda ega asosiy kelishik shaklida boʻlib, -은/는 [-in/nin] kelishik qoʻshimchasi bilan ifodalanadi:

남동생은 일찍 일어나요. [Namdong sengin ilchik ironayo]. *Ukam vaqtli turadi.*

2) kamroq hollarda esa bosh kelishik -이/가 [-i/ga] bilan ifodalanadi⁵⁹:

방학이 시작했어요. [Panghagi shijakhessoyo]. *Taʼtil boshlandi.*

Birinchi jumlamizda -은/는 [-in/nin] kelishik qoʻshimchasi 남동생 “*uka*” soʻziga qoʻshildi. Ikkinchi jumlamizda esa -이/가 [-i/ga] kelishik qoʻshimchasi 방학 “*taʼtil*” soʻzlariga qoʻshildi.

Baʼzida, ayniqsa ogʻzaki nutqda asosiy kelishiklar -은/는 [-in/nin] qoʻllanilmaslik holatlari ham uchrab turadi.

S i f a t e g a. Sifat koʻpincha otlashganda ega vazifasida keladi. Bunda sifat otning grammatik koʻrsatkichlarini oladi va predmetni uning belgisi orqali

⁵⁹ Koreys tilidagi asosiy va bosh kelishiklar tarjima qilinmaydi.

anglatadi.

S o n e g a. son ham ko'pincha otlashganda ega vazifasida keladi. Nutqda, matematik ifodalarda son miqdorning umumiy nomi sifatida qo'llanadi va ot kabi ega vazifasini bajaradi.

O l m o s h e g a. Olmosh ot, sifat va sonning o'rniga almashib qo'llanadigan so'z turkumidir.

Kesim 서술어 [Sosul o] egadan keyingi ikkinchi bosh bo'lak bo'lib, fikr almashuvda katta ahamiyatga egadir.

Kesim egadan anglashilgan shaxs, narsa – predmet va voqea – hodisaning belgisini bildiradi. Grammatik jihatdan kesim o'z tarkibidagi bo'laklarga nisbatan hokim, egaga nisbatan esa tobedir. Ega bosh hamda mutloq hokim bo'lak bo'lsa ham, gapni tashkil etishda kesim muhim ro'l o'ynaydi⁶⁰. Gap uchun xarakterli bo'lgan modallik, zamon, shaxs va intonatsion tugallik kabi hodisalar ko'pincha kesim bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun odatda gapning ba'zi semantik turlarini belgilashda kesim, uning shakli asosga olinadi, masalan:

이리 와 – [Iri va] – *Buyerga kel* buyruq gap.

여기에 왔어 – [Yo'gie vasso] – *Buyerga keldim* darak gap⁶¹.

Kesim ko'pincha fe'llar bilan ifodalanadi. Kesim vazifasida boshqa so'zlar ham kela oladi. Biroq bunda ayrim sharoitlar kerak bo'ladi: bog'lama, predikativlik affiksi, tartib va intonatsiya kabi hodisalarning ro'li kattadir. Shunday qilib kesimning ikki ko'rinishi ajratiladi: sodda va murakkab kesim. Sodda kesim fe'l yoki tuslanuvchi sifat dan iborat bo'lishi mumkin.

Murakkab kesim esa ot (yoki uning o'rnida qo'llanuvchi olmosh), son,

⁶⁰ 이흥식. 국어 문장의 주성분 연구. 월인. 1996. 34쪽. (*I Hing Shik, ona tilida gapning bosh bo'laklari tadqiqoti*).

⁶¹ O'sha kitob, 117-b.

tuslanuvchi sifat va ba'zi ravishlardan iborat bo'ladi. Murakkab kesim qanday so'z turkumi bilan ifodalanishi jihatidan ikki xil bo'ladi: murakkab fe'l kesim va murakkab ot kesim. Bu jihatdan koreys tili o'zbek tili bilan bir xillikka ega. Shu tufayli unga maxsus to'xtalmadik.

To'ldiruvchi 목적어 [Mokchogo] gapdagi biror bo'lakni to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan tobe holatda bog'langan bo'lakdir. To'ldiruvchi asosan fe'l – kesimga bog'lanadi, masalan:

저는 그 소식을 친구에게서 들었어요.

[Chonin ki soshigil chingu egeso tirossoyo].

Men bu xabarni do'stimdan eshitdim.

To'ldiruvchi qanday so'z turkumi bilan ifodalanishi jihatidan egaga o'xshaydi. To'ldiruvchi ham, ega ham predmetni bildiradigan bo'laklardir. Ammo, ega hokim holatdagi predmetni, to'ldiruvchi esa tobe holatdagi predmetni bildiradi. Ega bosh kelishik holatida kelsa, to'ldiruvchi tushum, o'rin – payt, chiqish, jo'nalish kelishiklari bilan ifodalanadi yoki ko'makchilar bilan birga keladi⁶². Bu uning tobeligini ko'rsatuvchi grammatik belgidir.

Aniqlovchi 관형어 [Gvan hyongo] predmetning belgisini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lakdir. Predmetning belgisi bosh bo'laklardan kesim orqali ham ifodalanishi mumkin. Biroq kesimda predmet predikativlik yo'li bilan aniqlanib, belgi tasdiq yoki inkorni keltirib chiqaruvchi element sifatida tasavvur etilsa, aniqlovchida predmet atributivlik yo'li bilan aniqlanib, belgi predmet bilan birgalikda, bir butun holda tasavvur etiladi.

물이 참니다. [muri chhamnida] – *suv sovuuq* (*sovuuq* - aniqlovchi).

⁶² 서정수. 국어문법. 서울. 한양대학교 출판원. 1996. 117쪽. (*So Djong Su , Ona tili grammatikasi*).

물이 안 춥니다. [muri an chhamnida] – *suv sovuq emas (sovuq emas - kesim)*⁶³.

Aniqlovchi ikkinchi darajali bo'laklarning alohida bir turidir. U gapning tarkibidagi roli jihatidan boshqa ikkinchi darajali bo'laklardan farq qiladi. To'ldiruvchi va hol fe'lga bog'lanib kelsa, aniqlovchi otga bog'lanib keladi.

Aniqlovchi ot, sifat, son, fe'lning gapdagi sintaktik vazifalaridan biridir. Ammo ularning hammasi ham aniqlovchi bo'la olmaydi. Sifatning aniqlovchi bo'la olishi esa, uning sintaktik vazifalaridan birinчисidir. Quyida ularning gapda uchrash holatlarini ko'rib chiqamiz.

S i f a t l o v c h i a n i q l o v c h i . Tuslanuvchi sifatning aniqlovchi formasida sifatdoshning –L [n] formasi qo'llaniladi.

높은 산 [nophin san] – *baland tog'*.

깊은 바다 [kiphin pada] – *chuqur dengiz*.

O t a n i q l o v c h i . Otning aniqlovchi vazifasida kelishi qaratqich kelishigi 의 [iye] bilan ifodalanadi.

아버지의 댁 [abojiye tek] – *otamning uy.i*

개회의 완수 [kehviye vansu] – *rejaning bajarilishi*.

S o n a n i q l o v c h i . Bunda sifatlovchi predmetning miqdor va tartib jihatdan belgisini bildiradi.

다음 주부터 두째 중간고사는 시작하겠어요.⁶⁴

[taim juputho tuchche chungan kosanin shijakhagessoyo]

Keyingi haftadan ikkinchi oraliq nazorat boshlanadi.

⁶³ 서정수. 국어문법. 서울. 한양대학교 출판원. 1996. 119쪽. (*So Djong Su , Ona tili grammatikasi*).

⁶⁴ 강영계. 청소년을 위한 철학이야기. 서울. 2004. 124쪽. (*Kang Yon Ge, O' smirlar uchun falsafiy suhbat*).

Hol 부사어 [Pusao] ko'pincha fe'l-kesimga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan bo'lakdir⁶⁵. Hol ish-harakatning belgi-sifatini, uning bajarilish usulini, shu bajarilish bilan bog'liq bo'lgan o'rin –payt, sabab, maqsad, shart –sharoit, miqdor – daraja kabi xususiyatlarni ko'rsatadi.

언어를 알아야 세계를 알 수 있다.

[Onoril araya segeril alsu itta].

Til bilsa el biladi.

Mazkur gapda shart holi qo'llangan.

Izohlovchi 동격어 [tong kyogo] aniqlovchining alohida bir turidir. U gapdagi ifodalamoqchi bo'lgan so'zning qo'shimcha, boshqacha nomini bildiradigan aniqlovchidir. Bunda gapdagi ushbu so'z boshqacha nom bilan ataladi va bu nom shu so'zning belgi – xususiyati deb qaraladi.⁶⁶

Izohlovchili birikmaning har ikki tarkibiy qismida, ya'ni, izohlovchi va izohlanmishda ham ot bo'ladi: bunda izohlovchi ot izohlanmish ot bilan aloqaga kirishadi. Demak, izohlovchili birikmada predmet bilan predmet munosabati ifodalanadi.

Izohlovchi predmetning quyidagi belgi – xususiyatlarini bildirishi mumkin:

1. Unvonini bildiradi: 김 장군님은 너무 엄격하시지만 진절한 분이십니다. [Kim djangunnimin nomu omgyok hashijiman jinchoran punishimnida] – *general Kim juda talabchan bo'lsalarda, ammo mehribonlar.*⁶⁷

2. Kasbi, mutaxassisligini bildiradi: 이 박사님께서서는 오늘 안 오셨어요? [Li

⁶⁵ 남기심. 현대 국어 통사론. 태학사. 2001. 142 쪽. (*Nam Gi Shim, Zamonaviy koreys tili sintaksisi*).

⁶⁶ 민현식. 국어 문법 연구. 역락. 1999. 89쪽. (*Min Hyon Shik, Ona tili grammatikasi tadqiqoti*).

⁶⁷ 박민기. 우리 존경하는 분들. 서울. 도아출판사. 1993. 43쪽. (*Pak Min Gi, Biz e'zozlaydigan insonlar*).

paksanimkkesonin onil an o'shyossoyo?]) – *professor Li bugun kelmadilarmi?*⁶⁸

Gapning uyushiq bo'laklari 동종문장성분 [tongdjong mundjang songbun]
deb bir gap tarkibida bir turdagi bo'laklar birdan ortiq holda qator kelishiga va
gapda birxil vazifani bajarayotgan gap bo'laklariga aytiladi. Uyushiq bo'laklar
bog'lov, ayiruv yoki zidlov munosabatida bo'lishi mumkin⁶⁹.

어제 학교에서 돌아오는 길에 수미, 민수, 소영을 봤어.

[oje hakkyo eso toraonin kire Sumi, Minsu, Soyongil passo]

Kecha maktabdan qaytayotganimda Sumi, Minsu, Soyongni ko'rdim

Mazkur gapimizda Sumi, Minsu, Soyong (ism) bo'laklari ega vazifasida
kelgan.

Koreys tilida uyushiq bo'laklarning ega orqali bog'lanishi ikki xil bo'ladi:
tugallangan va tugallanmagan.

Tugallanmagan bo'glanishda so'zlar ketma ket kelishi bilan ifodalanadi.
Uyushiq bo'laklarning boshqa bo'laklar bilan munosabatga kirishishida uyushib
kelayotgan so'zlarning eng oxirgisiga –은/는 [in/nin] bosh kelishik
qo'shimchasining qo'shilishi orqali erishiladi. Uyushib kelayotgan so'zlarga –은/
는 [in/nin] bosh kelishik qo'shimchasining qo'shilishi, ushbu so'zlarning ega
ekanligidan dalolat beradi.

거리에는 전차, 자동차, 우차, 마차가 연달아 오고간다⁷⁰.

[Ko'rienin chonchha, chadongchha, uchha, machhaga yontara ogokanda]

Ko'chada tramvay, mashina, ot aravalar birin ketin harakatlanishardi.

⁶⁸ O'sha manba, 87 bet.

⁶⁹ 장연준. 언어 속으로 산책. 태학사. 2005. 77쪽. (*Djang Yon Jun. Til bo'ylab sayohat*).

⁷⁰ 이용원. 생각하는 방법을 배우는 동화. 한국어린이 교육 연구원. 서울. 2000. 95 쪽. (*I Yong Von, O'ylash usulini o'rgatuvchi hikoyalar*).

Uyushiq bo'laklarni sanab o'tishda uning tugallanmaganligini bildirishda –**들** [-dil] (uni ko'plik qo'shimchasi bilan chalkashtirmaslik kerak) qo'shimchasidan, yoki **등** [ding] (*va hokazo*) so'zidan ham foydalansh mumkin.

우리는 이집트어, 중국어, 영어들을 배웁니다⁷¹.

[Urinin ijptio, chungugo, yongodiril peumnida]

Biz arab, xitoy, ingliz tillarini o'rganamiz.

Uyushiq bo'laklarni sanab o'tishda tugal ma'noni bildirishda quyidagi usullardan foydalaniladi.

1) uyushib kelayotgan barcha so'zlarni –**와/과** [-va/-gva] (-va) teng bog'lovchisi bilan bog'lash mumkin. Yoki barcha so'zlar ketma ket kelib, teng bog'lovchi faqat oxirgi so'zdan bitta oldingisiga qo'shilishi mumkin. Shu bilan birgalikda **및** [mit] (*va*)⁷² so'zi ham qo'llanilishi mumkin.

우리는 이집트어, 중국어 및 영어를 배웁니다.

[Urinin ijptio, chungogo mit yongoril peumnida]

Biz arab, xitoy va ingliz tillarini o'rganamiz.

U y u s h i q k e s i m l a r. Bir yoki bir necha egaga baravar tobe bo'lgan birdan ortiq kesim uyushiq kesim deyiladi. Uyusiq kesimlar uch xil bo'ladi:

1. Uyushiq fe'l kesimlar. Bunga fe'l bilan ifodalangan barcha uyushiq kesimlar kiradi:

추운 겨울에는 농민들이 새끼를 꼬고 가마니를 치며 베를 짭니다⁷³.

⁷¹ 강영계. 청소년을 위한 철학이야기. 서울. 2004. 56 쪽. (*Kang Yon Ge, O'smirlar uchun falsafiy suhbat*).

⁷² U ham *va* deb tarjima qilinadi. Faqat –**와/과** qo'shimcha bo'lsa, **및** [mit] esa so'zdir. Ko'pincha rasmiy doiralarda qo'llaniladi.

⁷³ 조병찬. 한국 사장사. 동국대학교출판부. 서울. 2004. 78 쪽. (*Cho Byong Chhan, Koreya bozori*

[Chhuun kyourenin nongmindiri sekkiril kkogo kamaniril chhimyo peril chchamnida].

Sovuq qish kunlarida dehqonlar ip yigirishar somondan qoplar tikib, kanopdan mato to'qishardi.

2. Uyushiq ot kesimlar. Bunda gap tarkibidagi ot bilan ifodalangan barcha uyushiq kesimlar kiradi:

우리는 기쁘며 행복해요⁷⁴.

[Urinin kippimyo hengbok heyo].

Biz shod va baxtiyormiz

3. Uyushiq aralash kesimlar. Bu guruhimizga gap tarkibida ba'zilar ot ba'zilar fe'l bilan ifodalangan uyushiq kesimlar kiradi

저는 학생이고 대학교에서 공부합니다.

[Chonin haksengigo tehakkyoeso kongbuhamnida]

Men talabaman, universitetda o'qiyman.

Kesim uyushiq gaplar o'zaro ravishdoshning -고 [-go] yoki -며[-myo] formalari bilan bog'lanadi. Ular haqida keyinroq batafsil so'z yuritimiz.

Xitoy leksik qatlamiga mansub bo'lgan ot kesimlar gapda qo'llanilayotganda hech qanday bog'lovchilarsiz ham uyushiq bo'laklarni hosil qilishi mumkin.

Masalan:

우리들은 조국의 자유와 독립을 쟁취 보장하였다⁷⁵.

[Uridirin joguge chayuva toknibil chengchhvi po'janghayotta]

Biz Vatanimiz ozodligi va mustaqilligini qo'lga kiritdik va ta'minladik.

tarixidan)

⁷⁴ 유안진. 부르고 싶은 이름으로. 서울. 1994. 145 쪽. (*Yu An Jin, Chaqirishni istagan ism ila*)

⁷⁵ 박민기. 우리 존경하는 분들. 서울. 도아출판사. 1993. 38 쪽. (*Pak Min Gi, Biz e' zozlaydigan insonlar*).

2. Murakkab gap sintaksisi

Murakkab gap bu – sintaktik butunlikning eng yuqori cho'qqisidir⁷⁶. Koreys tilida murakkab gap 복합문 [po'kxapmun] deb ataladi. Murakkab gaplarda tarkibiy jihatdan bir – biridan farq qiluvchi ikki qism mavjuddir. Bir tarkibda o'zi tuzilishi jihatidan, asosan sodda gap - 단순문 [tansunmun] tuzilishiga mos keladi. Ayniqsa, mazkur mutanosiblik bosh bo'laklarda yaqqol namoyon bo'ladi. Tarkibiy jihatdan tuzilishi sodda gap bilan nisbatan mos keluvchi ergash gap, o'zida barcha bosh bo'laklarni, ya'ni, ega va kesimni mujassamlashtirishi mumkin. Shunga binoan, koreys tilida bosh gap o'z tarkibiy jihatidan sodda gapga teng gap hisoblanib, bosh bo'laklar ham sodda gap tarkibidagi bosh bo'laklar bilan hamohangdir. Ammo bunday holatda murakkab gapning sodda gapdan nima farqi qoladi degan savol tug'ilishi tabiiy. Sodda gapda kesim tasdiq xarakterida kelsa, bosh gapda esa kesim o'zida nisbiylik xarakterini namoyon qiladi. Bundan esa, bosh gap tuzilishi jihatidan sodda gapga teng deb hisoblansada, ammo u o'zining ma'lum bir fikrning tugallanganlik ma'nosini kasb etishi uchun boshqa bir gapga “muhtoj” bo'ladi, degan xulosani⁷⁷ chiqarishimiz mumkin. Boshqa bir gap deganda, ergash gap nazarda tutilgan bo'lib, u bosh gapni izohlab keladi. Bosh gapning kesimi, uning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganidan qat'iy nazar, shaxs qo'shimchalarini qabul qiladi. Ergash gap esa, mazmun va tarkibiy tuzilishiga ko'ra, bosh gapdan

⁷⁶ 남기십. 국어문법론 강의. 공저. 학연사. 1999. 78 쪽. (*Nam Gi Shim, Ona tili nazariy grammatikasidan ma'ruzalar*).

⁷⁷ 남기십. 국어문법론 강의. 공저. 학연사. 1999. 80 쪽. (*Nam Gi Shim, Ona tili nazariy grammatikasidan ma'ruzalar*).

boshqacharoq tuzilib, bosh gapning biror bo'lagini izohlaydigan ergash gaplar vazifasiga ko'ra gap bo'laklariga yaqin bo'lib, bosh gapni butunicha izohlaydigan ergash gaplar esa, gap bo'laklariga vazifasi jihatidan mos kelmaydi. Sababi esa, ularning kesimi fe'lning shaxssiz formalari orqali ifodalanganidadir.

Koreys tilida murakkab gaplar tuzilishida ko'plab elementlardan foydalanilishi va aynan bir gap turkumiga oid ekanligini ko'rsatuvchi qo'shimchalarning ko'pligi, koreys tilidagi murakkab gaplar klassifikatsiyasini murakkablashtirib yuboradi. Yuqorida ta'kidlagan gapimizdan kelib chiqadigan bo'lsak, bunday bo'linish murakkab gapning o'ziga xos bo'lgan barcha xususiyatlarini namoyon eta olishi bilan birgalikda, gap tuzilishining eng sodda ko'rinishidan boshlab eng murakkabigacha bo'lgan yo'lni gapning ham grammatik ham semantik tuzilishi nuqtai nazaridan ketma ketlikda tadqiq qilish uchun sharoit yaratib berishi kerak. Va nihoyat bunday klassifikatsiya aynan grammatik bo'linish uchun juda ahamiyatlidir. Toki uning grammatik ma'nosi, mazmun-mohiyati bosh gap va ergash gap qismlari bilan birikib ketmasligi darkor.

Shunday qilib, murakkab gaplar klassifikatsiyasi tarkibiy-semantik tartibda bo'lmog'i kerak.

Koreys tilida murakkab gaplarning shunday konstruksiyalari borki, ular sodda gapning qismlari bilan hech qanday o'xshash tomonlari yo'q. Ushbu bo'linishning shak-shubhasiz o'ziga xos mavqei bo'lib, u murakkab gapning tuzilishiga ko'ra ko'rib chiqilib, sintaktik aloqalarga asoslanadi. Ammo mantiqiy klassifikatsiyalash sxemasining oxirga yetkazilmaganligi tilshunos olimlarni murakkab gaplar klassifikatsiyasini yanada takomillashgan na'munasini yaratishga majbur qildi.

Deyarli barcha tillardagi murakkab gaplar ikki guruhga ajratiladi:

1. bo'glovchilar yordamida birikkan ergash gaplar;
2. bog'lovchi so'zlar yordamida birikkan ergash gaplar.

Koreys tilida esa murakkab gaplarni tuzishda asosan grammatik konstruksiyalar va yuklamalardan foydalaniladi. Bu haqda batafsil keyingi bobda so'z yuritimiz.

Murakkab gaplarni tadqiq qilish natijasida ba'zi olimlar ergash gaplarni bosh gap tarkibidagi ot, olmosh va boshqa so'z turkumlarining mavjud yoki mavjud emasligiga qarab 2 guruhga ajratishadi.

Koreys tilidagi gaplar nutqda o'zaro turli munosabatlarga kirishishlari mumkin bo'lib, murakkab gaplar tuzilishi jihatidan o'zida bir emas, balki bir necha xil fikrlarni bayon qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga ergashgan murakkab gap sodda gapdan farqli o'laroq nafaqat monomodal, balki murakkab gap singari bimodal yoki polimodal ham bo'lishi mumkin. Koreys tilidagi murakkab gaplar boshqa tillardagi gaplar singari sodda gap yordamida ifodalab bo'lmaydigan fikrlarni yoritishda xizmat qiladi. Murakkab gaplarda intonatsion ohanglarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Shunday qilib, murakkab gaplar konstruksiyasi o'ziga xos taktik birlik sifatida sodda gapdan farqli o'laroq quyidagicha xarakterlanadi:

1. gap tuzilishi keng qamrovli imkoniyatlarga ega;
2. chuqur ma'noga ega;
3. grammatik formalarni ko'plab qo'llay olish imkoniyatiga ega.

Ikki (yoki undan ortiq) sodda gapning yonma yon turishi, ularning murakkab gapni tashkil etdi degani emas. Ular o'zaro shunchaki ma'lum bir fikrni ifodalagan bo'ladi, xolos. Modomiki, murakkab gap tugal fikrni ifodalovchi ma'lum bir butunlikni talab etadi⁷⁸.

⁷⁸ Lee Iksop and S.R.Ramsey. The Korean Language. New York: State University of New York

Ergash gapga nisbatan til va fikrlashning dialektik aloqasi shunday namoyon bo'ladiki, u gap komponentlarining birligini (butunligini) buzmaydi. Shuning uchun sabab – natita yoki zamon munosabatlari grammatik va ma'noviy mutanosibligi faqatgina tobe gap bilan ifodalanibgina qolmay, butun ergashgan murakkab gap konstruksiyasini o'z ichiga oladi.

Bosh gaplarning tuzilishi uning hajmi va ichki murakkabligi ko'p hollarda sodda gap tuzilishiga o'xshash bo'ladi.

밖에서 놀던 아이가 강아지를 보면서 사과를 먹었습니다⁷⁹.

[Pakkeso noldon aiga kangajiril pomyonso sagvaril mogossimnida]

Ko'chada o'ynayotgan bolakay kuchukchani ko'rib olma yeyayotgandi.

Tahlil qilayotgan murakkab gapimizdan uchta sodda gapni ajratishimiz mumkin:

1. 밖에서 놀던 아이가- [pakkeso noldon aiga] *ko'chada o'ynayotgan bolakay*
2. 강아지를 보면서 – [kangajiril pomyonso] *kuchukchani ko'rib*
3. 사과를 먹었습니다 – [sagvaril mogossimnida] *olma yeyayotgandi*

Mazkur sodda gaplar –면서 [-myonso]⁸⁰ grammatik konstruksiyasi yordamida o'zaro birikib, sabab ma'nosidagi murakkab gapni xosil qildi.

그 식당에 가고 김밥을 먹읍시다.

[Ki shiktange kago kompabil mogipshida]

Anavi ovqat yeydigan joyga borib kimpap yeylik.

Ushbu gap esa –고 bog'lovchisi yordamida bog'langan va u o'zbek tiliga

Press. 2000, 66p.

⁷⁹ 김순어. 소나기. 두산동아. 2005. 67 쪽. (Kim Sun O., Jala.).

⁸⁰ Ikki harakatni bir vaqtda sodir bo'layotganini bildirib, o'zbek tiliga “-ib” (ravishdosh bo'lib) deb tarjima qilinadi. Bu yerda gapning ikkinchi darajali bo'laklari nazarda tutilgan.

gapda ishlatilish o'rniga muvofiq "va" (teng bog'lovchisi) yoki "-ib" (ravishdoshi) deb tarjima qilinadi. Bu haqda keyingi bobda batafsil ma'lumot beramiz.

Shunday qilib murakkab gaplarni tashkil etuvchilarini⁸¹ bir butun jumla deb hisoblash mumkinmi yoki yo'qligi hali hamon ochiq qolmoqda. Ba'zi hollarda tashkil etuvchilar sodda gaplarni tuzishda yordam bersa, ba'zi hollarda esa – yo'q.

Bundan esa, tashkil etuvchilar nafaqat sodda gaplarni yoki boshqa gap turlari bilan qiyoslanishi mumkin, balki shart hamdir degan xulosa kelib chiqadi.

Murakkab gap tashkil etuvchilarining mustaqil sintaktik birliklar bilan mos kelishi ularning bosh va ergash gap bilan nisbiy mustaqilligini bildiradi. Bosh va ergash gaplarning nisbiy mustaqilligi ular orasidagi farqni yo'q bo'lishiga yo'l qo'ymaydi⁸².

Murakkab ergash gap tashkil etuvchilarining nisbiy mustaqilligining ikki xil darajasi farqlanadi:

- yuqori;
- quyi.

Ergash gaplar bosh gaplarga nisbatan prepozitsiyada (ya'ni, bevosita o'zi bog'langan gap yoki so'zdan keyin) turib, ularning ma'no kasb etuvchi talablariga javob berganda nisbiylik darajasi yuqori bo'ladi.

Ergash gaplar prepozitsiyada tursa yoki bosh gaplar so'z shakllarining valentlik talabiga javob bersa, nisbiylik darajasi quyi bo'ladi. Masalan,

그가 안 사면 다른 손님들이 살 것입니다⁸³.

⁸¹ 남기심. 현대 국어 통사론. 대학사. 2001년. 340 쪽. (*Nam Gi Shim, Zamonaviy koreys tili sintaksisi*).

⁸² Kim N.D. Kvooprosu ob osobennostyax strukturi slojnogo predlozheniya v kor.yazike

⁸³ 김순어. 소나기. 두산동아. 2005. 67 쪽. (*Kim Sun O., Jala*).

[Kiga an samyon tarin sonnimdi sal goshimnida]

Agar u sotib olmasa boshqa xaridorlar sotib olishadi.

Mazkur misolda sabab ma'nosida shart mayli konstruksiyasi –면 [myon] agar fe'l asosiga qo'shilib, bosh gapning nisbiy mustaqqilligiga ishora qilyapti.

Bosh gaplarning nisbiyligi ular tarkibidagi jumla tashkil etuvchilarining predikativlik chizig'ining ochiqligiga ishora qiluvchi vositalar bo'lsagina, o'z kuchini yo'qotadi.

얼마 전에 친구가 미국에서 왔던 사실을 들었다⁸⁴.

[O'lma chone chhinguga Migugeso vatton sashiril tirotta]

Bir qancha vaqt oldin do'stimni Amerikadan kelgani xabarini eshitdim.

Ushbu misolda –던 (-don) ya'ni, -gan sifatdoshi qo'llanilgan.

Ergash gaplar tuzilishining tahlili shuni ko'rsatadiki, ergash gaplar vazifasi jihatidan sodda gap bo'laklari bilan taqqoslana oladi. Ergash gap va sodda gap vazifalari aynan o'xshashligi, u yoki bu konstruksiyalarining ichki sintaktik holatini biror so'z yoki so'z birikmalari tashkil etishga asoslanadi.

Ergash gap va sodda gap bo'laklari funksional ya'ni, vazifaviy jihatdan o'xshashligi qaysidir ma'noda chegaralanadi. Bir tomondan ergash gaplarning shakliy semantik imkoniyatlari bo'lsa, ikkinchi tomondan gap bo'laklarining xususiyatlaridir.

Shunday qilib, ergash gap va bosh gap bo'laklari faqatgina vazifaviy nuqtai nazardan chegaralanar ekan.

Murakkab ergash gaplar tashkil etuvchilarining 2 ta turi mavjud:

1) ergash gaplar bosh gaplar orqali aniqlanadi va tugal ma'noga ega

⁸⁴ 박혜란. 여자와 남자. 서울. 웅진닷컴. 2003. 47 쪽. (Pak He Ran, Ayol va Erkak).

bo'ladi:

이 꽃이 사기 때문에 돈이 없다.

[I kkochi sagi ttemune toni opsotta]

Bu gulni sotib olganligim sababli pulim yo'q.

2) ergash va bosh gaplar o'zaro determinant ya'ni, aniqlovchi nuqtai nazaridan aloqada bo'ladi:

동생은 학교에 가자마자 우체부가 편지를 들고 들어왔다⁸⁵.

[Tongsengin hakkyoe kaja maja uchhebuga phyonjiril tilgo tirovatta]

Ukam maktabga ketishi bilanoq pochta xat bilan keldi

Murakkab gapning o'ziga xos quyidagi **xususiyatlari** bo'ladi:

– Murakkab gaplarning tarkibida, asosiy gap bo'laklaridan tashqari, ajratilgan bo'lak yoki undalma, yoki kirish bo'laklar bo'ladi (ba'zan bo'laklarning bir nechasi bir jumlada bo'lishi mumkin).

– Murakkab gaplar orqali sodda, birgina maqsad, niyat ifodalanib qolmay, murakkab fikr ifodalanadi.

– Murakkab gap tarkibida ikki xil predikativ birlik yoki hukmning biri asosiy bo'lib, ikkinchisi to'liq bo'lmagan hukm, yarim predikativlikdir. Asosiy hukm gapning umumiy mazmunidan anglashilsa, to'liq bo'lmagan hukm, yarim predikativlik bu xil gapning ajratilgan bo'laklari yoki undalmalari va yohud kirish bo'laklari orqali ifodalanadi.

– Murakkab gapni tashkil etgan bo'laklar gapning boshqa bo'laklari bilan yoki gapning umumiy mazmuni bilan izohlash munosabatiga kirishadi.

– Undalma va kirish sintaktik konstruksiyalari o'ziga xos gap bo'laklari

⁸⁵ 강영계. 청소년을 위한 철학이야기. 서울. 서광사. 2004. 27 쪽. (*Kang Yon Ge, O'smirlar uchun falsafiy suhbat*).

hisoblanadi. Ajratilgan ko'makchili konstruksiyalar esa to'ldiruvchi ham, hol ham bo'lmay, ajratilgan gap bo'laklarining alohida bir turini tashkil etadi.

Murakkab gaplardagi yarim predikativlik (to'liq bo'lmagan hukm) ergash gaplarga yoki to'liqsiz gaplarga yoki bir tarkibli gaplarning ayrim turlariga o'xshaydi. To'liq bo'lmagan hukmni ifodalagan ajratilgan bo'laklar, undalmalar va kirish bo'laklar semantik va intonatsion jihatdan ma'lum darajada mustaqillikka ega bo'lsalar ham, ammo ular gap hisoblana olmaydi.

– Murakkab gapni tashkil etuvchi bo'laklar: ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish yoki izoh bo'lak va birikmalar o'ziga xos ohang (intonatsiya) bilan talaffuz etiladi. Bu ohang boshqa gap bo'laklari ohangiga o'xshamaydi, ular gap bo'laklaridan pauza bilan ajralib turadi.

Koreys tilida murakkab gaplar boshqa tillar kabi ergashish va bog'lanish yo'li orqali ifodalanadi. Ular bilan quyidagi 1 - jadval “Ergashgan murakkab gaplar” orqali tanishib chiqamiz:

1- jadval.

Ergashgan murakkab gaplar

Gap turlari	Ifodalanishi	Misollar	Tarjima
Ega ergash gap	Bosh gapda olmosh (ko'rsatish, so'roq) orqali ifodalanadi.	누구 거짓말을 많이 말하면 그 사람 사람들한테서 존경을 잃을 것이다.	Kim yolg'onni ko'p gapirsa, u odamlar orasini o'z xurmatini yo'qotadi.
Kesim ergash gap	Bosh gapning kesimi faqat ot kesim bilan ifodalanadi.	지금은 제일 중요한 일이나라의 안정과 발전이다.	Xozirda eng muhim ish shuki, Vatan tinchligi va barqarorligidir.
To'ldiruvchi ergash gap	Bosh gapda olmosh orqali ifodalangan to'ldiruvchining ma'nosini aniqlab, izohlab keladi.	그는 결국 다시 인쇠소로 들어갈 것을 결심하였다.	U oxir-oqibat yana nashriyotga qaytishga qaror qildi.
Sabab ergash gap	Bosh gapdagi harakat, voqeaning yuzaga kelish sababini bildiradi.	인구가 늘어나고산업의 발달함의 따라 사회 생활도 복잡하게 되었다.	Aholi sonining oshishi va sanoatning rivojlanishi sababli ijtimoiy hayot ham ancha qiynlashib qoldi.
	Bosh gapdagi voqea	아이를 보는 것이 일을 하기	Farzand boqish ish qilishga

Taqqoslovchi ergash gap	bilan ergash gapdagi voqeani taqqoslab keladi.	보다는 더 어려운지를 은혜가 아이를 낳은 후에 깨달았습니다.	qaraganda ancha qiyin ekanligini Inxe farzandlik bo'lgandan keyin anglab yetdi.
O'lchov daraja ma'nosidagi ergash gap	Bosh gapdagi voqea bilan ergash gapdagi voqeaning darajasini aniqlaydi.	언어를 배울수록 모르는 것이 더 많아지게 보인다.	Til o'rgangan sari bilmagan jihatlar yana ko'paygandek tuyuladi.
To'siqsiz ergash gap	Bosh gapdagi harakatning yuzaga kelishida to'siq bo'lgan shartni ifodalaydi.	할아버지께서는 허리띠의 아픔에 불구하고 밭에서 일하기를 계속하시고 있었어요.	Bobom beldagi og'riqlariga qaramay dalada ishlashni davom ettiraverdilar.
Aniqlovchi ergash gap	Bosh gapdagi olmosh va ayrim sifatlarni izohlab keladi.		
Ravish ergash gap	Bosh gapdagi ish – harakatining bajarilgan tarzini bildiradi.	역사는 혼돈일 수도 있고 순환할 수도 있으며, 쇠망할 수도 있고 발전할 수도 있다.	Tarixda tartibsizlik ham bo'lishi mumkin, u doimiy harakatda bo'lib, u ham kuchsizlanib, ham rivojlanishi mumkin.
Payt ergash gap	Bosh gapdagi ish harakatini paytini bildiradi.	박 사장님이 오셨을 때 직원들이 다 자기 일을 하고 있었습시다.	Direktor Pak kelganlarida barcha ishchilar o'z ishlari bilan mashg'ul edilar.
Maqsad ergash gap	Bosh gapdagi harakatining maqsadini bildiradi.	우리는 몸과 마음을 모두 건강하게 하기 위하여 일을 즐기는 마음, 정직한 마음 사랑하는 마음을 지니도록 해야 한다.	Biz tana va qalbni sog'lomlashtirishimiz uchun o'z ishini joni bilan bajaruvchi toza va sevuvchi qalbni shakllantirishimiz darkor.
O'rin ergash gap	Boshgapdagi ish-harakatning bajarilgan o'rnini bildiradi.	어디에 안전이 있으면 거기 에 사람들이 행복하게 살 것이다.	Qayerda tinchlik bo'lsa, o'sha yerda insonlar baxtli yashay olishadi.

Endi 2-jadvalda murakkab gaplarning bog'langan ko'rinishini ko'rib chiqamiz.

2-jadval.

Bog'langan murakkab gaplar

Gap turlari	Ifodalanishi	Misollar	Tarjima
Biriktiruv munosabati	Gaplarning qismlari biriktiruv bog'lovchilar va ba'zi yuklamalar	회의가 끝나고 직원들이 자기 자리로 방향했어요.	Majlis tugadi va ishchilar o'z ish joylari tomon yo'nalishdi.

	orqali ifodalanadi.		
Ayiruv munosabati	Gap qismlari ayiruv bog'lovchilari yoki ayrim leksik elementlar bilan ifodalanadi.	저기에 널던 아이가 가끔 울고 가끔 웃었다.	Anavi yerda o'ynayotgan bolakay goh yig'lardi goh kulardi.
Zidlov munosabati	Gap qismlari o'zaro zidlov bog'lovchilari yordamida bog'lanadi.	지금 나라의 모습은 아주 예쁘지만 내일이 더욱 예뻐지고 행복해질 것이다.	Xozirda Vatanimiz ko'rki juda chiroyli, lekin ertasi yanada chiroyliroq va baxtliroq bo'ladi.
Inkor munosabat	Gap qismlari inkor yuklamalari bilan bog'lanadi.	존쟁 고아들이 부모님을 잃으면서 먹기에 물거나 빵도 없었어요.	Urushda yetim qolgan bolalar ota-onalarini yo'qotishi bilab birgalikda yeyishga na suv nanonlari bor edi.

II BOB bo'yicha xulosalar:

1. Gaplarning sodda va murakkab turlari formal jihatdan barcha tillarga xos xususiyatdir va u til universalisasi uchun xizmat qiladi.
2. Koreys tilida sodda va murakkab gaplarni farqlash keyingi tadqiqotlardagina amalga oshirila boshlandi.
3. Koreys tilida gap bo'laklari tartibi muayyan sintaktik va stilistik vazifalarni bajaradi.
4. Koreys tilidagi murakkab gaplar bog'lovchilar va bog'lovchi so'zlar (skreplar) orqali sintagmatik munosabatga kirishadi.
5. Koreys tilidagi murakkab gaplar nisbiy mustaqillikka ega bo'lishi ham mumkin.

III BOB. Murakkab gaplarning funksional – semantik xususiyatlari.

1. Ergashishga asoslangan

Mazmuni, grammatik tuzilishi hamda ohangiga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan, bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar⁸⁶ yordamida birikkan konstruksiyalar murakkab gap 복합문 [po'khapmun] ni tashkil etadi.

Shaklan murakkab gap birdan ortiq sodda gaplarning birikuvidan tarkib topgan bo'lsa ham, bu sodda gaplar mazmunan yaxlit holda birikib, umumiy bir fikrni, maqsadni ifodalaydi.

Demak, murakkab gapni tashkil etgan gaplar mazmuni, grammatik qurilishi va ohangi bilan alohida qo'llanuvchi mustaqqil sodda gaplardan farq qiladi. Shuning uchun ham har qanday sodda gapni biriktirib, murakkab gapni hosil qilish mumkin emas.

Tilda murakkab gaplarning ikkita tarkibiy – semantik tipi (kommunikativ – sintaktik) mavjud. Ulardan biri ikki qismli (yoki ko'pqismli) tip bo'lib, bir yoki bir necha kommunikativ birliklarni o'zida mujassamlashtiradi. Bunday murakkab gapning har bir qismi alohida kommunikativ birlikka ega. Ular alohida qo'llanilganda hecha qanday ma'no kasb etmasada, o'zaro aloqaga

⁸⁶ Bu yerda bog'lovchi vositalar deganda sodda gaplarni biriktirib, murakkab gap xosil qiluvchi har qanday grammatik va ohang vositalari tushuniladi.

kirishganda bir butun murakkab gapni hosil qiladi. bunga taqqoslash, sabab – natijaviy, zamon ifodalovchi, shart mayli hamda tobe gaplarni o'z ichiga oluvchi murakkab ergash gaplar kiradi. Koreys tilida ergash gaplar 부문 [pumun] deb ataladi.

Murakkab ergash gaplarning boshqa bir turi, ya'ni bir bo'laklisi yagona kommunikativ ma'noni ochiq holda namoyon qiladi. Bunday gapning tobe qismi asosiy gapning u yoki bu bo'lagiga mos keladi. Bunga ega ergash gap, kesim ergash gap, to'ldiruvchili ergash gap va boshqalar kiradi. Koreys tili gap tarkibida kesim muhim o'rinni egallaydi. Sabab munosabatida keluvchi barcha grammatik vositalar morfologik nuqtai nazardan fe'lga, sifatga qo'shiladi. -이다 [-ida] yordamchi fe'li esa ot turkumidagi so'zlarga qo'shiladi.

Murakkab gaplarni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin.

종속절 → 주문

Tobe gap → Asosiy gap

Ushbu chizma asosiy qismda ro'y bergan voqea – hodisa tobe qismdagi hodisaning sababi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

약이 없어서 어머니는 아이를 차만 주었다⁸⁷.

[Yagi opsoso omoninin airil chhaman chuotta].

Dori bo'lmagani uchun ona farzandiga faqat choy ichirardi.

Asosiy komponentdagi sabab yoki xulosa 어머니는 아이를 차만 주었다 [omoninin airil chhaman chuotta] “ona farzandiga faqat choy ichirard”i

⁸⁷ 박현옥 등정 없는 세상. 서울. 2000. 43 쪽. (Pak Hyon Uk, Shavqatsiz dunyo).

bo'lib, aniq sababi 약이 없어서 [yagi opsoso] “*dori bo'lmagani uchun*” dir.

“Asos - natija” variatsiyasi o'zida sababni mujassamlashtiradi, uning asosida shaklan turli xil bo'lgan ergash gaplar yagona sabab ergash gaplar sinfiga birlashadi. (bog'langan murakkab gaplar bobi)

Sabab gaplarda jumlarlar faqatgina xabar berish bilangina cheklanadi. Bunday jumladan boshqa holat haqidagi xabar sizib chiqmaydi degan ma'no tushuniladi. Aynan shu jihat bilan sabab gaplar shart maylili gaplardan farqlanib turadi.

Tobe qismida keltirilgan sababi asoslangan holatli gaplar asosiy qismda keltirilgan fikrning dalili bo'lib keladi. Sababi asoslangan jumlar o'zida mantiqiy fikrlarni jamlab, unda so'zlovchining nutqi ma'lum bir holatga sub'yektiv ma'no beruvchi modal so'zlar bilan ifodalandi. “아마도” [amado] (*balki, bo'lishi mumkin*), “-르 것 같다” [-r got kathta] (*o'xshaydi*), “-나 봐요” [-na bayo] (*shunday bo'lsa kerak, shunga o'xshaydi*) kabi grammatik vositalar shular jumlasidandir. Bu vositalar bosh gapning kesim asosiga qo'shilib, murakkab gaplarni hosil qilishda qo'llaniladi. Bu turdagi gaplar fe'l asosining unli yoki undosh bilan tugashiga qarab, har bir grammatik vosita o'zining ko'rinishiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu esa o'z navbatida koreys tilida unli va undoshlar garmoniyasi, ya'ni mutanosibligi alohida o'rinni egallashidan dalolat beradi. Agar ushbu jumla semantikasi mazkur munosabatlarni aniq yetkaza olsa, sababi asoslangan gaplarda modal so'zlarning qo'llanilishi shart emas.

Koreys tilida murakkab gaplar ma'lum mazmun munosabatlarini ifodalashi, grammatik belgilari, tuzilishi va ohangiga ko'ra ergash gap va bog'langan gaplarga ajratishimiz mumkin.

Murakkab gap ma'lum vositalar bilan o'zaro jips bog'langan gaplar

birikmasidan iborat. Ma'lum mazmuni ifodalashda xizmat qilgan gaplar grammatik, leksik va leksik – grammatik vositalar yordamida o'zaro birikadi. Bundan tashqari, murakab gapni tuzishda murakkab gap qismlarining zamon munosabati, gaplarning ohangi va o'rinishining ro'li ham kattadir. Ko'rsatib o'tilgan vositalar faqat murakkab gapni tuzib qolmasdan, ushbu gap qismlari orasida ma'lum semantik munosabatlarning o'rnatilishi uchun ham xizmat qiladi.

I. Grammatik vositalar. Murakkab gapni hosil qiluvchi grammatik vositalarga bog'lovchilar 연결 어미 [yongyol o'mi], yuklamalar 조사 [josa], kelishik qo'shimchalari 격조사 [kyok josa] kiradi. Bu vositalar bilan bog'langan va ergashgan murakkab gaplar tuziladi.

II. Leksik – grammatik vositalar. Murakkab gapni tuzishda xizmat qilgan leksik - grammatik vositalarga sifatdosh, ravishdosh, shart fe'li, buyruq fe'li, harakat nomi shakllari kiradi. Bu so'z turlari, o'z semantikasiga ko'ra murakkab gap tuzishda xizmat qiladi.

III. Leksik vositalar. Maxsus leksik vositalar va ayrim gap bo'laklarining semantikasi, vazifasi, o'рни murakkab gapni tuzishda, ma'lum mazmun munosabatlarning ifodalanishida muhim vositachilik ro'lini o'ynaydi. Leksik vositalar murakkab gapning ikkala turida ham qo'llaniladi.

Ergash gaplar teng bo'lmagan komponentlardan – bosh va ergash gaplardan tashkil topadi. Bosh gap mazmun va tuzilishiga ko'ra ancha mustaqilday tuzilgan bo'lib, ergash gap tomonidan izohlanib keladi. Bosh gapning kesimi, uning qanday so'z turkumi bilan ifodalanganligidan qat'iy nazar, shaxs qo'shimchalarini qabul qiladi. Ergash gap esa, bosh gapdan bir muncha farq qilib, bosh gapning biror bo'lagini yoki butun hammasini izohlaydi.

Ergash gaplar fikriy, grammatik, ohang (intonatsion) butunliklaridan iborat bo'lib, ularning tarkibidagi gaplar biri ikkinchisiga tobe bo'ladi. Bunday

murakkab gapning qismlari asosan ergashtiruvchi bog'lovchilar, nisbiy so'zlar, tobelanish ohangi kabi vositalar orqali birikadi.

Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi yordamchilar ko'pincha ergash gap tarkibida kelib, ergash gapning tobe ekanligini ko'rsatadi. Ergash gap bosh gapga nisbatan ma'lum bir vazifani bajaradi, ya'ni, bosh gapdagi bo'lakni aniqlaydi, to'ldiradi yoki uni butunicha izohlaydi. Shunga ko'ra ergash gap bilan gap bo'laklari vazifasiga ko'ra bir – biriga juda yaqindir. Shuning uchun ham ko'pgina ergash gaplar yoyiq gap bo'laklariga sinonim bo'lib keladi.

Ergash gap tuzilishiga ko'ra mustaqillikni ancha yo'qotgan, bosh gap esa birozgina yo'qotgan bo'ladi. Shuning uchun bosh gap tuzilishiga ko'ra mustaqil sodda gaplarga o'xshaydi. Ba'zan asosiy fikr bosh gapda emas, ergash gapda aytilgan bo'lib, u grammatik jihatdan bosh gapga yaqin bo'ladi.

Ergash gaplar ergash gap ko'rinishida tuzilgan ba'zi birikmali bo'laklardan farqlanib turadi. Bu farq quyidagicha:

1. Ergash gapning vazifasida kelgan -고, -(으)며 [-go, -(iy)myo] *(-i)b*, -지 말다 [-ji malda] *(-may)* affikslarini olgan ravishdosh formalari hech vaqt kesimni ifodalovchi shaxs qo'shimchasini olmaydi. Ba'zan -르 때까지 [-r tte kkaji] *(-guncha)* yordamchisi tarkibida ergash gapning egasi bilan shaxs, songa ko'ra moslashgan egalik affiksi qo'llaniladi. Bu, egalik affiksi “qo'llanmagan” egani ham ko'rsatib turadi⁸⁸.

(우리는) 올 때까지 가지 마세요⁸⁹.

⁸⁸ 김정숙, 박동호, 이병규. 외국인을 위한 한국어 문법. 대한민국. 서울. 2009. 78 쪽. (*Kim Jong Suk, Pak Dong Ho, I Bong Gu, Chet elliklar uchun koreys tili grammatikasi*).

⁸⁹ 한효석. 이렇게 해야 바로 쓴다. 한겨레신문사. 1995. (*Xan Hyo Sok, Shunday qilinsagina to'g'ri yoziladi*).

[(urinin) ol tte kkaji kaji maseyo]

(Biz) kelgunimizcha, ketmay turing.

(저는) 올 때까지 가지 마세요.

[(chonin) ol tte kkaji kaji maseyo]

(Men) kelgunimcha, ketmang.

(너는) 올 때까지 기다릴 게.

[(nonin) ol tte kkaji kidaril keyo]

(Sen) kelguningcha, kutamiz.

2. o'tgan zamon sifatdoshi o'rin – payt –에 [-e] va chiqish –에서 [-eso] kelishiklari affikslarini olib, ergash gapning kesimi bo'lib kelishi mumkin.

3. fe'ning harakat nomi shakli ergash gapning kesimi bo'lib kelganda, egalik affiksi va ayrim ko'makchilar bilan birga qo'llanadi.

Gaplarni o'zaro bog'lab, ergashgan murakkab gap xosil qilishda ergashtiruvchi bog'lovchilar, fe'l shakllari, yuklamalar, ko'makchilar, bog'lovchi so'zlar, ayrim kelishik qo'shimchalari, payt bildiruvchi otlar va bog'lovchi ohangdan foydalaniladi.

Ega ergash gap bosh gapda olmosh orqali ifodalangan eganing aniq ma'nosini ochish uchun xizmat qiladi yoki bosh gapda qo'llanmagan eganing vazifasini bajarib keladi. Bunday murakkab gaplarda ergash gap egasi bo'lmagan – to'liqsiz qo'llangan bosh gapning kesimiga nisbatan ega vazifasini bajarib keladi yoki olmosh orqali ifodalangan bosh gapning egasini izohlaydi, uning ma'nosini aniqlashtirib beradi.

Ega ergash gaplar bosh gaplar bilan qaysi grammatik vositalar orqali bog'lanishiga qarab turlicha bo'ladi: fe'ning shart mayli orqali bog'langanda, bosh gapdan oldin keladi, masalan:

진달래가 피면 고향이 더 그리워진다⁹⁰.

[Jindallega phimyon kohyangi to kirivojinda].

Azaliya guli gullaganda diyorimiz yanada ko'rkamlashadi.

아기들은 배가 고프면 울리기부터 한다⁹¹.

[Agidirin pega kophimyon ulligi phuto handa].

Bolalarning qorni ochsa yig'lashni boshlashadi.

Birinchi gapimizda shart mayli qo'shimchasi -면 [-myon] 피다 [phida] *gullamoq* fe'liga qo'shilgan bo'lsa, ikkinchi gapda esa 고프다 [ko'phida] *qorin ochmoq* fe'liga qo'shib kelgan.

Bosh gapda kesim vazifasida kelgan ko'rsatish, so'roq olmoshlari kesim ergash gap tomonidan izohlanadi. Kesim ergash gap shaxs yoki predmet ma'nosini ko'rsatuvchi eganing belgisini, xususiyatini ko'rsatadi.

Kesim ergash gapli murakkab gaplarda bosh gapning kesimi faqat ot kesim shaklida ifodalangan bo'ladi va bu kesimlar sodda yoki qo'shma holatlarda uchraydi, masalan:

지금은 제일 중요한 일이 나라의 안정과 발전이다⁹².

Hamma ko'rsatish yoki so'roq olmoshlari ham bosh gapda kesim bo'lib kelavermaydi. Ergash gap orqali ma'nosi aniqlashayotgan bosh gapning kesimi o'rin – payt -에 [-e] -*da* va chiqish -에서 [-eso] -*dan* kelishiklari bilan

⁹⁰ 원유순. 호랑나비와 림보. 두산동아. 1996. 12 쪽. (*Von Yu Sun, Xorang nomli kapalak va Rimbo*).

⁹¹ 박혜란. 여자와 남자. 서울. 웅진닷컴. 2003. 49 쪽. (*Pak He Ran, Ayol va Erkak*).

⁹² 신현실. 싫어 나라의 병정들. 서울. 1995. 92 쪽. (*Shin Hyon Shil., Hush ko'rmagan davlatning harbiylari*).

ifodalangan bo'lishi mumkin.

Bosh gapda kesim vazifasida kelgan ko'rsatish, so'roq olmoshlari kesim ergash gap tomonidan izohlanadi. Kesim ergash gap shaxs yoki predmet ma'nosini ko'rsatuvchi eganing belgisini, xususiyatini ko'rsatadi.

Kesim ergash gap deyarli hamma vaqt bosh gapdan keyin keladi.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi fikrga ob'yekt sifatida xizmat qiladi. U bosh gapda olmosh orqali ifodalangan to'ldiruvchining ma'nosini aniqlab, izohlab keladi yoki to'ldiruvchisi bo'lmagan bosh gapdagi harakatning ob'yektini ko'rsatadi – bosh gapdagi fe'l kesimga nisbatan to'ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi tushum, chiqish, jo'nalish va o'rin-payt kelishigida, shuningdek, ko'makchili ko'rsatish olmoshlarining ma'nosini aniqlashtirib beradi.

To'ldiruvchui ergash gaplarni ikkiga bo'lish mumkin: vositasiz to'ldiruvchini izohlaydigan ergash gaplar, vositali to'ldiruvchini izohlaydigan ergash gaplar.

Birinchi turdagi ergash gaplar bosh gapdagi vositasiz to'ldiruvchi izohlaydi. Bunday murakkab gaplarda bosh gapning kesimi ob'yektli fe'llar orqali ifodalanadi.

Vositali to'ldiruvchisi izohlanadigan murakkab gaplarda ob'yektsiz fe'llar bosh gapning kesimi bo'lib keladi.

Bu hildagi ergash gaplar bosh gapda qo'llanmagan to'ldiruvchining vazifasini bajaradi.

To'ldiruvchi ergash gap turli uslubiy talablarga ko'ra bosh gapning oldida yoki keyinida kelishi mumkin.

Agar murakkab gap tarkibidagi ma'lum so'z boshqalarga nisbatan ahamiyat berib, ajratib, ta'kidlab ko'rsatiladigan bo'lsa, u so'z gapning boshiga keltiriladi.

Shuning natijasida bosh gap ergash gapning o'rtasida keladi. Bunday gaplar vazifasiga ko'ra ko'proq kirish gaplarga yaqinlashadi, lekin kirish gap sanalmaydi.

Bunday gapning kesimi sifatdosh formasiga ega. Ergash gapni bosh gap bilan bog'lashda –것 [-got]; –이[-i]; –말 [-mal]; –줄 [-chul]; –모양 [mo'yang]; –데 [-de]; –바 [-ba] kabi mustaqil bo'lmagan otlar ham ishtirok etishi mumkin.

–것 [-got] asosan fe'ldan ot yasashda qo'llanilib, tushum, o'rin-payt, jo'nalish kelishiklari bilan ifodalanadi. Ergash gap kesimi ega ergash gap kesimi bilan ham mos keladi.

하지만 막내아들은 가만히 생각해 보니 자신은 젊기 때문에 열심히 일하면 얼마든지 부자가 될 수 있다는 것을 깨달았습니다⁹³.

[Hajiman makne adirin kamani sengakhe poni chashinin cholmgi ttemune yolshimi iramyon olmatinji pujaga tvel su ittanin gosil kketarassimnida]

Lekin kichik o'g'li bir zum o'ylab turib, o'zini hali yosh ekanligi tufayli g'ayrat bilan ishlasa, qachondir boy bo'la olishini anglab yetdi.

Mazkur jumlada –것 [-got] ot yasovchi qo'shimchasi 부자가 될 수 있다는 것을 *boy bo'la olmoq* fe'liga qo'shilib, *bo'la olish* shakliga o'zgardi. –것 yopiq bo'g'inli so'z bo'lgani uchun tushum kelishigining –을 [-il] shakli bilan ifodalandi.

덕준이 무슨 중요한 일을 맡고 있는 것을 점순이는 짐작하고 있었습니다⁹⁴.

⁹³ 이용원. 생각하는 방법을 배우는 동화. 서울. 2000. 215 쪽. (*I Yong Von, O'ylash usulini o'rgatuvchi hikoyalar*).

⁹⁴ 경혜진. 회사가 당신에게 알려주지 않는 50 가지 비밀. 도서출판. 2007. 132 쪽. (*Kong He Jin, Firmaning sizga aytmaydigan 50 siri*).

[Tok Juni musin chungyohan iril mathko innin Chom Suninin chimjakhago isossimnida]

Tok Jun qandaydir muhim ish bilan badligini Chom Sun tahmin qilayotgandi.

그는 결국 다시 인쇠소로 들어갈 것을 결심하였다⁹⁵.

[Kinin kyolguk tashi insvesoro tirogal gosil kyolshim hayotta]

U oxir oqibat yana nashriyotga ishga kirishga qaror qildi.

-말 [-mal] ot yasovchi qo'shimchasi ham tushum kelishigi bilan ifodalanadi.

Bosh gapning kesimi “bilmoq”, “eshitmoq” kabi fe'llar bilan kelganda –것 [-got] o'rniga –말 [-mal] qo'llaniladi. Ergash gapning kesimi bo'lib kelayotganda esa –한다는 [-handanin] –하였다는 [-hayottanin] yordamchi so'zlari bilan birga keladi.

며칠 전에 인쇠에 붙인 잡지 원고의 교정이 오늘부터 나온다는 말을 들은 경수는 아침을 제촉해서 먹고 결로 바로 인쇠소로 달려갔다.⁹⁶

[Myochhil chone insvie puchhin chapchi vongoe kyojongi onilputho naondanin maril tiring Kyong Sunin achimil chejokheso mokko kyollo paro insvisoru tallyogatta]

Bir neha kun oldin nashriyotga topshirgan jurnali bugundan boshlab chiqishini eshitgan Kyong Su ertalabki nonushtasini tezda yeb, nashriyot tomon yugurdi.

-줄 [-chul] yordamchi fe'li ham asosan tushum kelishigi –을/를 yoki asosiy kelishik –은 bilan ifodalanadi. Jumlada kesim 알다 - [alda] - “bilmoq”, 모르다 –

⁹⁵ 김순어. 소나기. 두산동아. 2005. 96 쪽. (Kim Sun O., Jala).

⁹⁶ O'sha kitob, 97-b.

[morida] - “bilmaslik”, 믿다 – [mitta] - “ishonmoq”, 하다 – [hada] - “qila olmoq”, “taxmin qilmoq” fe’llari bilan kelganda -줄 [-chul] qo’llaniladi. Ergash gapda kesimning fe’lga –하는 [-xanin] xozirgi zamon sifatdosh, –한 [-xan] o’tgan zamon sifatdosh, –하던[-xadon] o’tgan zamonda ish harakatining bir marta sodir bo’lganini bildiruvchi sifatdosh, –할[-xal] kelasi zamon sifatdoshi, sifatga esa –한 [-xan] o’tgan zamon, –할[-xal] kelasi zamon, otga esa –인[-in] qo’shimchalari qo’shib, keyin –줄 va gapning mazmuniga qarab, yuqoridagi fe’llardan biri qo’llanadi, masalan:

아이를 키우고 교육 시키는 것이 엄마가 말씀하시는 대로 어려운 일인 줄 몰랐다⁹⁷.

[Airil khiugo kyoyuk shikinin goshi ommaga malssim hashinin dero oryoun chul mollatta].

Farzand o’stirib, unga ta’lim tarbiya berish onam aytganlaridek qiyin ekanligini bilmasdim.

Ega va to’ldiruvchili so’roq gaplar. Mazkur gaplar darak gaplar hisoblanadi. (yuqorida ko’rib chiqqanlarimiz) Shu bilan bir qatorda ularning so’roq shakllari ham mavjuddir. Bunday gaplarning kesimi sifatdosh formasiga ega. Darak gaplardan farqli o’laroq, bunday gaplarda so’roq yuklamalari –가 [-ga] va –지 [-ji] (*ekan*) qo’llanilib, barcha ergash gaplar bosh gaplarga asosiy kelishik –는 [-nin] yoki tushum kelishigi –를 [-ril] bilan bog’lanadi.

–가 [-ga] yuklamasi ergash gaplar kesimi fe’lning –는 [-nin] va sifatning –ㄴ

⁹⁷ 박민기. 우리 존경하는 분들. 서울. 도아출판사. 1993. 66 쪽. (*Pak Min Gi, Biz e’zozlaydigan insonlar*).

[-n] shaklini talab qiladi. Agar egaga qo'shilsa, unda albatta –인 [-in] qo'shimchasi turishi zarurdir.

김민수는 계획성 없는 작업이 얼마나 위험한 것인가를 작년 겨울에 자기 눈으로 보아 잘 안다⁹⁸.

[Kim Min Sunin keheksong omnin chagobi olmana vihomhan goshingiril changnyon kyoure chagi nuniro poa chal anda].

Kim Min Su rejasiz ish qilish qanchalik xatarli ekanligini o'tgan yili qishda o'z ko'zlari bilan ko'rib, bildi.

이순신이 어떤 사람인가를 아시려면 아무러한 한국인에게나 물어 보세요⁹⁹.

[I Sun Shin otton saramingiril arishiryomyon amurohan hanguk inege muro poseyo].

Li Su Shin qanday inson ekanligini bilmoqchi bo'lsangiz, hohlagan koreysdan so'rashingiz mumkin.

Birinchi jumlamizda –가 [-ga] yuklamasi 위험한 것이다 [vihomhan goshida] *xatarli ish* so'ziga qo'shilgan bo'lsa, ikkinchi jumlamizda esa 사람 [saram] *inson* so'zlariga qo'shilib kelgan.

-지 [-ji] so'roq yuklamasi ergash gapning kesimi –는 [-nin] qo'shimchasini bo'lishini talab qiladi. Fe'l va sifatlarda –하는지 [-xaninji] xozirgi zamon, –하였는지 [-xayonninji] o'tgan zamon, –할는지 [-xalninji] kelasi zamon,

⁹⁸ 경혜진. 회사가 당신에게 알려주지 않는 50 가지 비밀. 도서출판. 2007. 55 쪽. (*Kong He Jin, Firmaning sizga aytmaydigan 50 siri*).

⁹⁹ 박민기. 우리 존경하는 분들. 서울. 도아출판사. 1993. 98 쪽. (*Pak Min Gi, Biz e'zozlaydigan insonlar*).

otlarga –인지 [-inji] yordamchi qo'shimchasini talab qiladi.

여러분이 입고 있는 옷이 무엇으로 만들었는지를 압니까?

[Yorobuni ipko innin o'shi muosiro mandironnin jiril amnikka?]

Siz kiygan kiyimingiz nimadan tayyorlanganligini bilasizmi?

Payt ergash gapli murakkab gaplar. Payt ergash gaplar bosq gapdagi harakat, voqeaning yuzaga kelish paytini – vatini bildiradi. bunday murakkab gaplarda ergash gap bosh gapdagi harakatning faqat paytinigina bildirib qolmay, shunga bog'langan holda shart va sababni ham ko'rsatishi mumkin. Lekin bunday gaplarda payt mazmuni sabab, shart ma'nolaridan ustun turadi. Sabab, shart ma'nolari unga qo'shimcha bo'lib keladi¹⁰⁰.

Koreys tilida mazkur gaplarda ikki gapni bo'lishda payt munosabatini bildiruvchi –때 [-tte] (*vaqtida, paytida*), –때부터 [-tte putho] (*-dan beri*), –때마다 [-tte mada] (*har vaqtda*), 뒤에/-ㄴ 후에 [-tvie/-n hue] (*-dan keyin*), –ㄴ 지 [-n ji] (*qandaydir voqeaga qanchadir vaqt bo'lganini bildiradi*) kabi qo'shimchalar va 사이 [sai] (*orasida, qandaydir vaqt oralig'ida*), 동안 [tongan] (*davomida*), 다 음 [taim] (*keyin*) mustaqil bo'lmagan otlardan foydalaniladi.

–때 [-tte] zamon bildiruvchi qo'shimchasi o'zidan keyin, ko'pincha jo'nalish kelishigi bilan keladi. O'zbek tiliga *vaqtida, paytida* deb tarjima qilinadi. Uning –때부터 [-tte putho] (*-dan beri*), –때마다 [-tte mada] (*har vaqtda*) kabi shakllari ham mavjud. Ergash gap kesimi o'tgan zamonda bo'lsa –하였을 때 [-xayossil tte], kelasi zamonda bo'lsa –할 때 [-xal tte] ko'rinishida ifodalanadi.

¹⁰⁰ 정기철. 문장의 기초. 서울. 도서출판 열락. 2004. 61 쪽. (*Chong G Chhol, Gap asosi*).

거리에 나설 때는 언제든지 정신을 차려야 합니다¹⁰¹.

[Korie nasol tte onjetinji chongshinil chharyoya hamnida].

Ko'chaga chiqqanda fikrni jamlab, ehtiyot bo'lish kerak.

한가지 차례가 시작될 때와 끝나칠 때마다 요란한 박수 소리가 들렸습니다.

[Xan gaji chharega shijaktvel tteva kkitmajil ttemada yoranan paksu soriga tillyos-simnida]

Tamoshaning har boshlanishida va tugashida gulduros qarsaklarning tovushi eshitilardi.

뒤에/-ㄴ 후에 [-tvie/-n hue] (-gandan keyin,-gach) vaqt, paytni bildiruvchi zamon qo'shimchalari asosan, ergash gapning kesimi o'tgan zamonda bo'lganida qo'llaniladi. Ushbu qo'shimchalar ergash gap kesimi kelasi zamoni ifodalayotganda hech qachon qo'llanilmaydi. Uning o'rniga -ㄹ 때 [-r tte] qo'llaniladi.

집안일을 한 후에 아픈 친구를 문병하기러 병원으로 갔어요¹⁰².

[Chiban iril xan xue aphin chhinguril munpyong hagiroyon pyongvon iro kassoyo]

Uy ishlarini qilib bo'lgach, kasal bo'lgan do'stimni ko'rishga shifoxonaga bordim.

-ㄴ 지 [-n ji] (qandaydir voqeaga qanchadir vaqt bo'lganini bildiradi) yuklamasi ergash gap kesimini o'tgan zamonda bo'lishini talab qiladi. Bosh gapda u yoki bu sanani, qandaydir voqeani aytib o'tishda qo'llaniladi.

¹⁰¹ 박현욱 동정 없는 세상. 서울. 2000. 114 쪽. (Pak Hyon Uk, Shavqatsiz dunyo).

¹⁰² 김순어. 소나기. 두산동아. 2005. 32 쪽. (Kim Sun O, Jala).

제가 한국에 온 지 2년이 됐지만 아직까지 매운 음식을 못 먹어요¹⁰³.

[Chega Hanguge on ji I nyoni tvetchiman ajik kkaji meun imshigil mot mogoyo]

Koreyaga kelganimga ikki yil bo'lgan bo'lsa ham, achchiq taomlarni hali ham yeya olmayman.

사이 [sai] o'zbek tiliga *orasida, shu vaqtda* deb tarjima qilinadi. Qisqartirilganda 새 [se] shaklida bo'ladi. Ko'pincha kelasi zamon shaklidagi fe'llar bilan qo'llaniladi.

동안 [tongan] vaqt, paytni bildiruvchi mustaqil bo'lmagan ot hisoblanib, o'zbek tiliga *davomida* deb tarjima qilinadi. Gaplarni bog'lashda otdan keyin qo'llaniladi.

마을 사람들은 며칠 동안 김을 맬 생각도 않고 학 나무 밑에 모여 앉아 맞은편 산만 바라보고 있었다¹⁰⁴.

[Mail saramdirin myochhil tongan kimil men sengkakdo anko xak namu mithe moyo anja monghi majinpyhyon sanman parapogo isotta]

Qishloq odamlari bir necha kun davomida o' tlarini yulishni hayol ham qilmay, laylak o' tirgan daraxt tagida yig'ilib o'tirishar va qarshilaridagi tog'ga tikilib qarab o'tirishardi.

학기가 끝난 후에 마을에 할머니의 댁에 와서 여름을 시원한 바람이 불고 있는 마을에서 치내면서 방학 동안에 2권이나 책을 읽고 말았어¹⁰⁵.

¹⁰³ 윤석민. 현대국어의 문장종결법 연구. 집문당. 2000. 56 쪽. (*Yun Sok Min, Xozirgi koreys tilida gapning tugallanish usullari*).

¹⁰⁴ 박현옥 동정 없는 세상. 서울. 2000. 123 쪽. (*Pak Hyon Uk, Shavqatsiz dunyo*).

¹⁰⁵ 이해인. 기쁨이 열리는 창. 서울. 마음산책. 2004. 76 쪽. (*I Hhe In, Baxtga ochiluvchi derazalar*).

[Hakkiga kkitnan hue maire halmoniye tege vaso yorimil shivonan parami punin maireso chhinemyonso panghak tongane i kvonina chhegil ilkko marassoyo]

O'qish tugagandan so'ng qishloqqa buvimning uylariga borib, yozni salqin shabada esib turgan qishloqda o'tkazishim barobarida ta' til davomida ikkita asarni o'qib tugatdim.

Sabab ergash gapli murakkab gaplar. Sabab ergash gap bosh gapdagi harakat, voqeaning yuzaga kelish sababini asosini bildiradi. Bunday murakkab gaplarda ergash gap sababni ko'rsatsa, bosh gap shu sababdan kelib chiqadigan natijani ifodalaydi.

Sabab ergash gapli murakkab gaplarda holat – payt, maqsadli gaplar hamda vaqt jihatdan ma'lum bir sababni keltirishiga ko'ra –gi 때문에 [-gi ttemune] (*sababli*), –(하)기 위하여 [-(xa)gi vihayo] (*nima uchundir*), –기 전에 [-gi chone], –하기 전에[-hagi chone] (*-dan avval, oldin*) kabi bog'lovchilar bilan birikadi.

문화는 시대나 사회의 상황과 현실을 바탕으로 해서 태어난다. 그러기 때문에 문화 작품은 그 시대와 사회가 지닌 온갖 삶의 모습 및 풍속과 꿈과 아픔 같은 것들을 비추는 거울과 같다¹⁰⁶.

[Munhvanin shidena sahvie sang hvangva xyonshiril pathangiro heso theonanda. Kirogi ttemune munhva chakphumin ki shideva sahvinga chinin ongat salme mosip mit phunsok gva kkumgva aphimkathin gotdiril pichhunin koulgva kaththa]

¹⁰⁶ 강영계. 청소년을 위한 철학이야기. 서울. 서광사. 2004. 91 쪽. (*Kang Yon Ge, O'smirlar uhun falsafiy hikoyalar*).

Madaniyat davr yoki jamiyatning holati va real asosida dunyoga keladi. Shu sababli madaniyat durdonalari o'sha davr va jamiyat hayotining ko'rinishi va odatlarini, orzu va dardlarini o'zida ifoda etgan ko'zgu misol namoyon bo'ladi.

불고기를 하기 전에 꼭 다시 한번 요리책을 읽어 보고 다음에 만드세요¹⁰⁷.

[Pulgogiril hagi chone kkok tashi xan bon yorichhegil ilgo pogo taime mandiseyo]

Pulgogini tayyorlashdan avval albatta yana bir bor retsept kitobini o'qib keyin tayyorlang.

Taqqoslash ma'nosidagi ergash gaplar. Bunday gaplarda ikki gap o'zaro –기 보다 [-gi poda] (-ga qaraganda) qo'shimchasi orqali birikadi. Bu qo'shimcha faqat fe'lga qo'shiladi.

아이를 보는 것이 일을 하기 보다는 더 어려운지를 은혜가 아이를 낳은 후에 게달았 습니다¹⁰⁸.

[Airil ponin goshi iril hagi podanin to oryounjiril airil nahin xue ketarassimnida]

Bolani katta qilish ish qilishga qaraganda ancha qiyin ekanligini Inxe farzandlik bo'lganidan keyin anglab yetdi.

Ushbu gapda –기 보다 [-gi poda] (-ga qaraganda) 일을 하다 [iril xada] (*ish qilmoq*) fe'lga qo'shib kelgan.

O'lchov daraja ergash gapli murakkab gaplar. O'lchov daraja ergash gaplari bosh gapdagi voqea bilan ergash gapdagi voqeaning darajasini aniqlash va

¹⁰⁷ 반민기. 맛있는 음식을 먹고 싶을 까? 서울. 2006. 16 쪽. (*Pak Min Gi, Mazali ovqat yeyishni xoxlaysizmi?*)

¹⁰⁸ 박민기. 우리 존경하는 분들. 서울. 도아출판사. 1993. (*Pak Min Gi, Biz e'zozlaydigan insonlar*)

miqdorini o'lchash uchun qo'llaniladi. Bunday qo'shma gplarda ergash gap bosh gapdagi ot kesimning belgisini yoki fe'l kesim oldidagi ravish, daraja – miqdor hollarining belgisini ko'rsatuvchi *shuncha, shunday, shunchalik* kabi so'zlarning ma'nosini aniqlashtirib keladi. Koreys tilida o'lchov daraja ergash gaplari mustaqil bo'lmagan –만큼 [mankhim] so'zi bilan ifodalanadi. Ergash gap kesimi –한 [-xan], –하였던 [-xayotton] o'tgan zamon shaklidagi sifatdosh ko'rinishida bo'lishi lozim.

그 규정은 원본에는 없던 것으로 뒤에 부가된 확실한 만큼 이부가의 시기를 명백히 할 필요가 있다.

[Ki kyujongin vonbonenin opton gosiro tvie pugatven hvakshil han mankhim ibugaye shigiril myong bekhi hal piryoga itta]

Bu qoidaning asl nusxa emasligi va uning keyinchalik qo'shilgani ma'lum bo'ldiki, uning qo'shilgan vaqtini aniqlash zarur.

Ushbu gap fe'lining shart shakli –ki bog'lovchisi orqali bog'langan.

Shu bilan birgalikda –(르/을)수록 [-surok] (*sayin, -gan sari*) qo'shimchasi ham mavjud bo'lib, u –만큼 [mankhim] dan farqli o'laroq kelasi zamonda qo'llaniladi, masalan:

언어를 배울수록 모르는 것이 많아지게 보입니다¹⁰⁹.

[Onoril peulsurok morinin goshi manajige poimnida].

Tilni o'rgangan sari bilmagan narsalar ko'paygandek tuyuladi.

Maqsad ergash gapli murakkab gaplar. Maqsad ergash gap bosh gapdagi harakat yoki voqeaning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini ko'rsatadi.

¹⁰⁹ 황경식. 재미있는 논리와 논술 이야기. 열림원. 1993. (*Xvan Kyong Shik, Qiziqarli mantiq va bayon*).

Bunday murakkab gaplarni asosan “uchun” -기 위해 [-gi vie] yordamchisi orqali bog’lanadi.

Ergash gap bosh gap bilan “uchun” yordamchisi orqali birikkanda ergash gap bosh gapdan oldin keladi, masalan:

언제 어디서 누구나 손쉬게 생활체육을 실천하는 “건강하고 활기찬 대한민국” 을 만들기 위해 국민 생활체육회는 그 징검다리가 될 것이다¹¹⁰.

[Onje odiso nuguna sonsvige senghval cheyugil shiljonhanin “Konganhago hvalgichhan tehan minguk”il mandilgi vie kukmin senghval cheyukhvenin ki chingoptariga tvel goshida].

Qachondir har yerda har kim sog’lom turmush tarzini yaratish uchun qo’shgan xissasi va xalqning jismoniy hayotdagi harakatlari “Sog’lom va barhayot Koreya” davlatini qurishda toshko’prik vazifasini o’taydi.

To’ siqsiz ergash gapli murakkab gaplar. Bunday murakkab gaplarda ergash gap bosh gapdagi harakatning yuzaga kelishida to’siq bo’lgan shartni ifodalash bilan birga shu shartning yuzaga kelishida bosh gapdagi harakat – voqea to’siq bo’lmasligini bildiradi. To’siqsiz ergash gapli murakkab gaplarda bosh gap ergash gapdagi shartdan kutilgan mazmunga zid bo’lgan harakat, voqealarni ifodalaydi.

To’siqsiz ergash gapli murakkab gaplar mazmunan zidlov munosabatlari ifodalangan bog’langan murakkab gapga o’xshaganligi uchun, gaplarni birikishida -에 불구하고 [-e pulgu hago] (-sa ham) yordamchisidan tashqari, bog’langan murakkab gaplarni biriktiruvchi ammo, lekin zidlov bog’lovchilari ishlatilishi mumkin. Gapdagi ma’noni kuchaytirishda -도 [-do] ham kuchaytiruvchi bog’lovchisi ham qo’llanilishi mumkin.

¹¹⁰ 고향의 향기. -서울. 2010. № 10. 27 쪽. (Vatan ifori jurnalidan).

할아버지께서는 허리띠의 아픔에 불구하고 밭에서 일 하기를 계속하시고 있었어요.

[Xaraboji kkesonin xorittime aphime pulguhago patheso il hagiril kesok hashigo isossoyo]

Bobom beldagi og'riqqa qaramasdan (bo'lsa ham), dalada ishlashni davom ettiraverdilar

2.Bog'langan murakkab gaplar

Inson o'z atrofini o'rab turgan borliq haqida fikr yuritar ekan, iyyimoiy hayot qonuniyatlarini anglaydi. Bunday fikrlash xosilasini esa nutqda namoyon qiladi. Buni anglab yetishda tildan tashqari qonuniyatlar aniq sintaktik strukturani belgilaydi. Ob'yektiv haqiqatdagi ikki hodisa orasidagi sabab – natija munosabatini o'rnatib, ular harakatni aniqlab, so'zlovchi sabab ifodalovchi fikrini aniqlab, uni ifoda etishda aniq bir sintaktik vositani tanlaydi.

Bog'langan murakkab gaplar deb o'zaro teng bog'lovchilar yordamida birikkan, mazmun va tuzilishiga ko'ra bir butun tashkil etgan murakkab gap turlariga aytiladi¹¹¹. Koreys tilida 합성문 [xapsong mun] deb ataladi.

Bog'langan murakkab gapni boshqa murakkab gap tuzilishidan farqlab turuvchi asosiy grammatik belgi ularni tashkil etgan qismlarni bir biriga bog'lab turuvchi teng bog'lovchilar va yuklamalardir. Mazkur gap turida faqatgina teng bog'lovchilar yoki yuklamardangina foydalanmasdan, ayirish mazmun munosabatini va sabab – natija mazmun munosabatini ifodalovchi vositalarning qo'llanilishini hamda ularning har bir semantik munosabat ichida o'ziga xos mazmun kasb etishini ko'rish mumkin.

¹¹¹ Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi o'zbek adabiy tili –T.: O'zbekiston. 1997. 131-b.

Bog'langan murakkab gaplarda ular tarkibidagi gaplarning gap bo'laklari, grammatik va semantik munosabat, aytim leksik elementlarning qo'llanilishi va gapdagi ohang asosiy ro'l o'ynaydi.

Albatta, teng bog'lovchi bog'langan murakkab gapni tuzuvchi asosiy vosita bo'lib qoladi. Teng bog'lovchining har bir turi ma'lum bir mazmun munosabatini ro'yobga chiqarishda xizmat qiladi. (masalan, *va* bog'lovchisi biriktiruv munosabatini, *lekin* zidlov bog'lovchisi qiyoslash munosabatini ifodalagan murakkab gaplarda ishlatiladi)

Bog'langan murakkab gapni tashkil etgan qismlar shaklan mustaqil, mazmunan o'zaro bog'langan gaplardan tashkil topadi. Bunday murakkab gap qismlarining bir – biriga bog'liqligi ularning tarkibida, kesimlarining semantik va grammatik munosabatida, umumiy gap bo'laklarining bo'lishida ham ko'rinadi. Shuning uchun ham bog'langan murakkab gap, qancha gaplardan tashkil topmasin, yaxlit bir butunlikni tashkil qiladi¹¹².

Bog'langan murakkab gaplar ikki qismdan tashkil topadi. Bu qismlar o'zaro teng bog'lovchilar yordami bilan birikadi.

Bog'langan murakkab gaplarni tashkil etgan qismlar orasida doimo bir xil semantik munosabat ifodalanavermaydi¹¹³. Ko'pincha, bir murakkab gap tarkibida birdan ortiq semantik munosabatlarning ifodalanganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, biriktiruv munosabati boshqa semantik munosabatlar bilan bog'lanishi, ayiruv munosabatida qiyoslash munosabati bilan sabab – natija munosabati birlikda ifodalanishi mumkin va boshqalar.¹¹⁴

Koreys tilidagi barcha bog'langan murakkab gaplarni morfologik nuqtai

¹¹² Abdurahmonov G', Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J. Sintaksis. – T.: "O'qituvchi", 1979. 332-b.

¹¹³ O'sha kitob, o'sha bet.

¹¹⁴ Abdurahmonov G', Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J. Sintaksis. – T.: "O'qituvchi", 1979. 333-b.

nazardan ikkita katta guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga, bog'langan murakkab gaplarning gap bo'laklari orasidagi munosabat ravishdosh yordamida ifodalanadi.

Ikkinchi guruhga, bog'langan murakkab gaplarning gap bo'laklari orasidagi munosabat mustaqil bo'lmagan yordamchi otlar orqali ifodalanadi.

Gap bo'laklari orasidagi ifoda munosabatlarning qanchalik mustahkam ekanligiga qarab farqlanadi. Bog'langan gapning gap bo'laklari orasidagi munosabat ravishdosh orqali o'zaro mustahkam aloqaga kirishsa, unga qarshi taraf bo'lib esa, gap bo'laklarining mustaqil bo'lmagan yordamchi otlar orqali birikishi esa ravishdoshga nisbatan ancha sust bo'lgan aloqani yuzaga keltiradi.

Birinchi guruhda gaplarni o'zaro bog'lashda quyidagi ravishdoshlardan foydalaniladi:

a) bog'lovchi ravishdoshlar (-고 [-go] va -(으)며 [-(iy)myo])

-고 bog'lovchisi

Ikki sodda gapni o'zaro bog'lashda qo'llaniladigan bog'lovchilar koreys tilida alohida ahamiyatga ega.

Ho'sh, koreys tilida bog'lovchilar o'zi nima?

Gap bo'laklarini yoki murakkab gapning qismlarini bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar, qo'shimchalar – bog'lovchi deyiladi. Bog'lovchilar gap bo'laklari va murakkab gaplarning sodda gapga teng qismlari orasidagi turlicha aloqalarni, grammatik munosabatlarni ko'rsatadi.

Bog'lovchilar – gapni ketma-ketlikda qo'yib beruvchi, tanlab beruvchi, tushuntirib beruvchi, harakatni davomiylashtiruvchi, harakatni to'xtatuvchi, harakatni to'ldirib beruvchi, maqsad qilib beruvchi vazifani bajaradi.

Koreys tilida ham boshqa tillar singari bog'lovchilarning ko'plab turlari mavjud. Koreys tilida bog'lovchilar grammatik jihatdan o'zgarmaydi va mustaqil

leksik ma'noga ega emas.

-고 [-go] bog'lovchi qo'shimcha uyushiq bo'laklarning so'z yasovchi qo'shimchasidir. -고 [-go] uyushiq bo'laklarini bog'lovchi qo'shimchasi faktlarni, ya'ni o'zgartirib bo'lmaydigan holatlarni sanab o'tilganda ishlatiladi.

Bu qo'shimchani 6 guruhga bo'lib o'rganamiz:

Birinchi guruhda -고[-go] bog'lovchi qo'shimchasi ikkita yoki undan ortiq dalil yoki asosni sanab o'tadi, masalan:

저는 모스크바에 살고 우리 형은 서울에 삽니다¹¹⁵.

[Chonin Mosikibae salgo uri hyongin Soure samnida].

Men Moskvada yashayman, akam esa (bo'lsa) Seulda yashaydi.

Bu misolni ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu misolda -고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasi 살다 [salda] *yashamoq* fe'liga qo'shilgan bo'lib, xozirgi zamoni ko'rsatyapti. Bu misolda -고 [-go] ikki misolni qo'shib turib, ikkita asosni keltirmoqda. Ya'ni birinchi gapda u aynan Moskvada tursa, akasini aynan Seulda turishini dalil qilib aytmoqda.

Ba'zi hollarda esa -고 [-go] hech qanday otga qo'shilmasdan yakka holda ham kelishi mumkin. Bu 그리고 [kirigo] so'zi bo'lib, -고 [-go] uning qisqargan shaklidir, masalan:

저는 모스크바에사 삽니다. 그리고 우리 형은 서울에서 삽니다.

[Chonin Mosikibae samnida. Kirigo uri hyongin Soure samnida].

¹¹⁵ 정동완. 국어 복합문의 의미 연구. 서광 학술자료사. 1993. 40 쪽. (*Jong Dong Van, Murakkab gaplarning ma'noviy tadqiqotlari*).

Men Moskvada yashayman. Akam esa (bo'lsa) Seulda yashaydi.

Bu ko'rinisdagi gaplarni asosan koreys tilini endi o'rganayotgan talabalar qo'llaydilar. Sababi esa –고 ikki gapni murakkab gapga aylantirish ular uchun murakkabroq hisoblanadi.

Ikkinchi tur. –고 bir vaqtning o'zida ikki ish harakatining sodir bo'layotganini ifodalashda qo'llaniladi. Gapda “esa” deb tarjima qilinadi. Masalan:

언니는 회사에 가고 나는 학교에 갔어요¹¹⁶.

[Onninin hvesae kago nanin hakkyoe kassoyo].

Opam firmaga ketdi, men esa maktabga.

Bu misolda –고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasi 가다 [kada] *ketmoq* fe'liga qo'shilgan bo'lib, gap o'tgan zamonda berilgan. Agar gap o'tgan zamonda berilgan bo'lsa, u holda birinchi gapning fe'liga –고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasi o'tgan zamoni bildiruvchi –았/었/였 [-as/os/yos] qo'shimchalari bilan bog'lanib kelmay, balki o'zi qo'shiladi. O'tgan zamon qo'shimchasi esa ikkinchi gapning fe'liga qo'shiladi.

Uchinchi tur. –고 bog'lovchi qo'shimchasi oldingi va keyingi harakatlarning ketma-ketligini bildiradi. Bunda oldin kelgan gap tugallangan hisoblanadi.

Masalan:

그 사람이 사람을 죽이고 도망쳤습니다¹¹⁷.

¹¹⁶ 백봉자. 한국어문법사전. 연세대학교 출판부. 2001. 96 쪽. (*Pek Pong Ja, Koreys tilining Grammatik lug'ati*).

¹¹⁷ 신현실. 싫어 나라의 병정들. 서광사. 1995. (*Shin Hyon Shil., Hush ko'rmagan davlatning harbiylari*).

[Ki sarami saramil chugigo tomangchyossimnida].

U odam odamni o'ldirdi va qochib ketdi.

Bu misolda -고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasi 죽이다 [chugida] *o'ldirmoq* fe'liga qo'shilgan bo'lib, bu gapda ham harakatlar o'tgan zamonda berilgan.

To'rtinchi tur. Oldingi gapda ish-harakati tugallangandan keyingi sodir bo'ladigan keyingi ish harakatini ko'rsatadi. -고서 [-goso] va -고 나서 [-go naso] qo'shimchalari bilan -고 [-go] bog'lovchisi o'xshash vazifani bajaradi, masalan:

여동생은 새옷을 입고 외출했어요¹¹⁸.

[Yodongsengin seosil ipgo vichulhessoyo].

Singlim yangi ko'ylak kiyib tashqariga chiqdi.

Bu misolda -고 [-go] bog'lovchisi 입다 [ipta] *kiymoq* fe'liga qo'shilgan. Gapning birinchi qismida ish-harakati tugagandan keyin ikkinchi ish-harakati yuzaga kelganini bildiriyapti. Bu gap ham o'tgan zamonda berilgan.

Beshinchi tur. -고 [-go] bog'lovchisi bir qancha dalillarni aytib o'tib, ma'nosini kuchaytirib yetkazib berishda qo'llaniladi. Bu dalillar qarama-qarshi, ya'ni antonim bo'lishi ham mumkin. Bunda -고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasi ham harakat ham holat fe'llariga qo'shilib kela oladi, masalan:

울고 웃는 것이 인생살이란다¹¹⁹.

[Ulgo unnin goshi inseng sariranda].

Qayg'u va quvonch hayot demakdir.

¹¹⁸ 강영계. 청소년을 위한 철학이야기. 서울. 서광사. 2004. 44 쪽. (*Kang Yon Ge, O'smirlar uhun falsafiy hikoyalar*).

¹¹⁹ 박현욱. 동정 없는 세상. 서울. 2000. 32 쪽. (*Pak Hyon Uk, Shavqatsiz dunyo*).

Bu misolda -고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasi 을다 [ulda] yig'lamoq fe'liga qo'shilgan. Yig'lamoq va kulmoq so'zlari bu gapda atonim bo'lib kelgan hamda gap xozirgi zamonda berilgan.

Otlinchi tur. Bu turga 4 kichik guruh kiradi:

- Zamonli tartibni paydo qiluvchi harakatli fe'llarga qo'shiladi;
- Birinchi gapning egasi va ikkinchi gapning egasi bir xil bo'ladi;
- -고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasiga zamonlarni bildiruvchi qo'shimcha qo'shilmaydi;

- Birinchi va ikkinchi gapning o'rnini almashtirib bo'lmaydi.

1. Zamon orqali birinchi harakat paydo bo'lgandan keyin, ikkinchi harakatning sodir bo'lishi.

Birinchi gap ikkinchi gapning sababi bo'lib keladi. -고서 [-goso] va -고 나서 [-go naso] qo'shimchasi bilan -고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasi ma'nosi deyarli bir xil, masalan:

헤어 디자이너 누나들에게 인사하고 소장실로 들어갔습니다¹²⁰.

[Heo dijaino nunadirege insahago sodjangshillo tirogassimnida].

Sartarosh ayol kishilarga salom berib, raxbarning xonasiga kirib ketdi.

Bu gapda -고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasi 인사하다 [insaxada] salomlashmoq fe'liga qo'shilgan bo'lib, bir harakat ketidan keyingisi kelayotganini ifodalayapti. Ushbu misol o'tgan zamon shaklida berilgan.

2. birinchi gapning harakati yoki natijasini saqlagan holda ikkinchi gapning harakati qanday bo'lishini hal etadi.

- Usul yoki uslublarni hosil qiladi;

¹²⁰ 박현욱. 동정 없는 세상. 서울. 2000.166 쪽. (Pak Hyon Uk, Shavqatsiz dunyo).

- -고서 [-goso] qo'shimchasi orqali o'zgartirsa bo'ladi. Masalan:

그들은 술 마시고 시간 가는 줄 모르고 떠들었습니다¹²¹.

[Kidirin sul mashigi shigan kanin chul morigo ttotirossimnida].

Ular spirtli ichimlik ichishib vaqt qanday o'tganini bilishmay shovqin solishardi.

Ushbu misolda -고 [-go] bog'lovchisi 마시다 [mashida] *ichmoq* va 모르다 *bilmaslik* fe'llariga qo'shilib kelgan. Gapda kishilarning ichimlik ichishganligi vaqt o'tishining bilmaganini sababi bo'lib kelyapti va buning natijasida bilmay shovqin solishganligi ikki harakatdan kelib chiqqan natija hisoblanadi. Bu misolda bir necha kishilar harakatining ketma ketligi fe'llar orqali ko'rsatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki -고 bog'lovchi qo'shimchasi faqatgina ikki gapni emas balki undan ham ko'p gaplarni bog'lab kelishi mumkin ekan. Ushbu misol ham o'tgan zamonda berilgan.

3. Ikkinchi gapning natijasi birinchi gapning natijasidan kelib chiqadi, masalan:

한국말을 모르고 한국인의 정서를 알 수 없다¹²².

[Hanguk maril morigo hangukine chongsoril alsu opta].

Koreys tilini bilmay turib, koreyslarning xarakterini bilib bo'lmaydi.

Bu misolda -고 [go] bog'lovchisi 모르다 [morida] *bilmaslik* fe'lga qo'shilib kelgan. “*Koreyslarning xarakterini bilib bo'lmaydi*” ushbu gap “*koreys tilini bilmaslik*” gapi natijasida kelib chiqdi. Bu gap xozirgi zamonda berilgan.

¹²¹ 신현실. 싫어 나라의 병정들. 서광사. 1995. (*Shin Hyon Shil., Hush ko'rmagan davlatning harbiylari*).

¹²² 경혜진. 회사가 당신에게 알려주지 않는 50 가지 비밀. 도서출판. 2007. (*Kong He Jin, Firmaning sizga aytmaydigan 50 siri*).

4. Suxbatdoshning gapiga qarshiligini bildirishda ishlatiladi. Masalan:

가: 나 심부름 안 할 거야.

나: 심부름 안 하면 누가 용돈을 주고?¹²³

[ka: Na shimburim an hal goya].

[na: Shimburim an hamyon nuga yongtonil chugo?]

A: *Men mayday ishlarni qilmayman.*

B: *Mayda ishlarni qilmasang kim senga pul berarkan?*

Bu gapda -고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasi gapning oxirida kelgan 주다 [chuda] *bermoq* fe'liga qo'shilgan bo'lib, gap xozirgi zamonda kelgan. Bu gapga ahamiyat beradigan bo'lsak, -고 [-go] bog'lovchi qo'shimchasi faqat ikki gapni bog'lamasdan, balki gap oxirida kelib, savol ma'nosida ham kelishi mumkin ekan.

-고 [-go] bog'lovchisi -아(어/여) 가지다 [-a(o/yo) kajida] konstruksiyasiga qo'shilib, sabab ma'nosini anglatib keladi.

-아(어/여) 가지고 [-a(o/yo) kajigo] bog'lovchisi gapning tugallangan harakatini bildiradi. Bu konstruksiya odatda og'zaki nutqda uchraydi. Uni -아서(어서/여서) [-aso(oso/yoso)] sabab bog'lovchisi bilan taqqoslasak bo'ladi. Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin.

지금 시간이 없어 가지고 가야겠어요¹²⁴.

[Chigim shigani opso kajigo kayagessoyo].

Hozir vaqtim yo'qligi sababli ketishim kerak.

¹²³ 박현욱. 동정 없는 세상. 서울. 2000. (*Pak Hyon Uk, Shavqatsiz dunyo*).

¹²⁴ 남문정. 할리우드 낮과 밤. -New York. 1997. (*Nam Mun Jong, Gollivudning kecha va kunduzi*).

Ushbu gapda -아(어/여) 가지고 [-a(o/yo) kajigo] qo'shimchasi 없다 [opta] yo'q holat fe'liga qo'shilgan bo'lib, sabab ma'nosida kelyapti. Endi uni -아서(-어서/여서) [-aso(oso/yoso)] qo'shimchasi bilan almashtirib yozib ko'ramiz:

지금 시간이 없어서 가야겠어요.

[Chigim shigani opsoso kayagessoyo].

Xozir vaqtim yo'qligi (uchun) sababli ketishim ketishim kerak.

b) ‘-(으)며 bog‘lovchisi

Koreys tilida bog‘lovchilar ravishdosh yasovchi qo‘shimchalar hisoblanib, ular mustaqil qo‘llana olmaydi, balki so‘zga qo‘shilib keladi. Koreys tilida ikki sodda gapni o‘zaro bog‘lab yozish uchun gapning mazmun-mohiyatiga qarab, kerakli bog‘lovchidan foydalaniladi¹²⁵.

-(으)며 [-(iy)myo] bog‘lovchisi harakatlarni sanab o‘tishda qo‘llaniladi. O‘zbek tiliga tarjima qilinganda, “-ib” ravishdosh so‘z yasovchisi hamda “va” teng bog‘lovchisiga to‘g‘ri keladi. -(으)며 [-(iy)myo] bog‘lovchisi odatda ikki harakatning bir vaqtda sodir bo‘layotganini bildiradi, yoki bir harakatdan keyingi harakat kelib chiqishini ifodalaydi.

-(으)며 [-(iy)myo] bog‘lovchisi asosan fe‘lning hozirgi zamon shakliga qo‘shiladi. U og‘zaki nutqda qo‘llanilganda ‘매’va ‘며’ ko‘rinishida talaffuz qilinadi.

-(으)며 [-(iy)myo] bog‘lovchisi o‘tgan, hozirgi, kelasi zamonda kelsa, birinchi

¹²⁵ 신개정. 외국인을 위한 한국어문법. 연세대학교 출판부. 1997. 152쪽. (*Chet elliklar uchun koreys tili grammatikasi*).

gapdagi fe'lga hech qanday zamon qo'shimchalari qo'yilmaydi. Zamon qo'shimchalari keyingi gapning fe'lga qo'shiladi.

1. 고개를 흔들며 바르카는 다시 노래를 부릅니다¹²⁶.

[Kogeril hindilmyo Barikanin tashi noreril purimnida].

Boshini qimirlatib Var'ka yana qo'shiq kuylayapti.

2. 돈을 많이 벌면 큰 집도 사며 좋은 차도 사겠다.

[Toni mani polmyon khin chipdo samyo choin chhado sagetta].

Ko'p pul ishlab topsam, katta uy sotib olib yaxshi mashina ham sotib olaman.

Ushbu misollar yuqoridagi fikrimizning dalili bo'la oladi, ya'ni 1-gapdagi harakatlar aynan hozirgi zamonda sodir bo'lyapti va -(으)며 [-(iy)myo] bog'lovchisi 흔들다 [xindilda] *qimirlatmoq* fe'lga qo'shilgan. 2-misolda esa harakatlar kelasi zamonda sodir bo'lishi ifodalangan va -며 [-myo] bog'lovchisi [sada] *sotib olmoq* fe'lga qo'shilgan.

Ammo istisno tarzida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, gapning birinchi qismidagi harakatlar o'tgan yoki kelasi zamonda sodir bo'ladigan bo'lsa, bu holda zamon qo'shimchalari albatta ko'rsatilishi shart. Aks holda gap xato tuzilgan hisoblanadi.

1. 나는 TV를 보며 친구는 라디오를 들었다 (x).

[Nanin TVril pomyo chhingunin radioril tirotta].

2. 나는 TV를 보았으며 친구는 라디오를 들었다 (o)¹²⁷.

[Nanin TVril poassimyo chhingunin radioril tirotta].

Men televizor ko'rdim, do'stim esa radio tinglardi.

¹²⁶ 안톤 제호프. 너무도 행복한 순간. 세상속으로. 1999년. 96쪽.

¹²⁷ 박현욱 동정 없는 세상. 서울. 2000. 166쪽. (*Pak Hyon Uk, Shavqatsiz dunyo*).

Tarjima nuqtai nazaridan har ikkala gap ham to‘g‘ri, ammo gap grammatik nuqtai nazardan xato hisoblanadi. Yuqorida aytganimizdek, zamon qo‘shimchalari gapning har ikkala qismida ham qo‘llanilishi kerak edi.

Mazkur bog‘lovchi ikki harakat yoki holatni xosil qilishda ham qo‘llanilib, ketma-ketlik, oraliq yoki vaqt ketma-ketligiga bo‘linadi.

Fe’llarning ketma ketlikda kelishi:

“마침내 우리만 있게 되어 정말 기쁩니다” 라프킨이 주위를 둘러보며 말을 꺼냈다¹²⁸.

[“Machimne uriman itke tvio kippimnida” Papkini chuviril tullopomyo maril kkonetta]

Vanihojat, o‘zimiz faqat o‘zimiz qolganimizdan juda baxtiyorman-deya, Ravkin atrofga boqib gap boshladi.

Vaqtning ketma ketlikda kelishi:

Bu turda -(으)며 [-(iy)myo] bog‘lovchisi harakat fe’liga qo‘shiladi. Bir vaqtda ikki harakat ketma-ketlikda sodir bo‘lishini ko‘rsatishi bilan birga, birinchi gapning fe’liga qo‘shiladi.

나는 문을 열며 아이들을 불렀다.

[Nanin munil yolmyo aidiril pullotta].

Men eshikni ochib, bolalarni chaqirdim.

-며 [-(iy)myo] bog‘lovchisi inkor gaplarda ham qo‘llanilishi mumkin:

봄이 왔는데 꽃도 안 피며 나비도 안 난다¹²⁹.

[Pomi vanninde kotdo an phimyo nabido an nanda].

¹²⁸ 안톤 제호프. 너무도 행복한 순간.- 세상속으로. 1998. 82 쪽. (Anton Chexov, Juda ham baxtli lahzalar).

¹²⁹ 원유순. 호랑나비와 림보. -두산동아. 1996. 14 쪽. (Von Yu Sun, Xorang nomli kapalak va Rimbo).

Bahor kelgan bo‘lsada, na gullar gulladi, na kapalaklar uchdi.

Ushbu misolda fe’ldan oldin qo‘llaniladigan inkor shakl 안 [an] dan foydalanildi. -며 [-myo] bog‘lovchisi esa 피다 [phida] *gullamoq* fe’liga qo‘shildi.

-며 [-myo] bog‘lovchisi buyruq yoki taklif gapda qo‘llanilmaydi:

1. 사과도 먹으며 배도 먹어라.

[Sagvado mogimyo pedo mogora].

Olma ham ye, nok ham ye.

2. 음악을 들으며 청소를 하자¹³⁰.

[Imagil tirimyo chongsoril haja].

Musiqa tinglab uy tozalaylik .

Birinchi misol buyruq gap. Ikkinchi misol esa taklif gap. Tarjima jihatidan har ikkala gap ham to‘g‘ri bo‘lsada, ammo gapning grammatik tuzilishi jihatidan xato. Yuqoridagi har ikkala gapda -(으)며 [-(iy)myo] bog‘lovchisi o‘rniga -고 [-go] bog‘lovchisi qo‘llanilganda¹³¹, gap to‘g‘ri tuzilgan bo‘lar edi.

-고 va -(으)며 bog‘lovchi qo‘shimchalarining o‘zaro solishtiruv jadvali:

-고	-(으)며
1. Bir narakatdan keyingi gapning natijasi kelib chiqadi.	1. Ikki narakat yoki noiauni nosii qiladi
2. Gap o‘tgan zamonda berilgan bo‘lsa, gapning birinchi qismi o‘tgan zamon shaklida berilishi mumkin.	2. Gap o‘tgan zamonda berilsa, birinchi qismiga o‘tgan zamon qo‘shimchasi qo‘shila olmaydi.

Yuqorida gaplarning -고 [-go] va -(으)며 [-(iy)myo] orqali bog‘lanishini ko‘rib chiqdik. Endi esa sodda gaplarning mazmun munosabatiga ko‘ra

¹³⁰ 백봉자. 한국어문법사전. 연세대학교 출판부. 2001. 96쪽. (*Pek Pong Ja, Koreys tilidan grammat k lug‘at*).

¹³¹ U ham va, -ib deya tarjima qilinadi, biroq qo‘llanilish holatlari ‘-며’ bog‘lovchisidan farq qiladi.

bog'lanishini ko'rib chiqamiz:

Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar o'zaro va, hamda bog'lovchilari, ham, -da yuklamalari yordamida bog'lanadi va bir paytda yoki ketma – ket ro'y bergan voqea-hodisalarni ifodalaydi, masalan:

회의가 끝나고 직원들이 자기 자리로 방향했어요¹³².

[Heiga kkitnago chikvondiri chagi chariro panghyang hessoyo].

Majlis tugadi va ishchilar o'z ish joylari tomon yo'nalishdi.

Mazkur gapimizda –고 [-go] biriktiruvchi bog'lovchi vazifasida kelib, 끝나다 [kkitnada] *tugamoq* fe'liga birikib keldi. Gap o'tgan zamonda berilgan.

Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gaplar o'zaro ammo, lekin, biroq bog'lovchilari yordamida bog'lanadi, masalan:

지금 나라의 모습은 아주 예쁘지만 내일이 더욱 예뻐지고 행복해질 것이다¹³³.

[Chigim narae mosibin au yeppijiman neiri touk yeppojigo hengbok hejil goshida].

Hozirda Vatanimiz ko'rki juda chiroyli, lekin ertasi yanada chiroyliroq va baxtliroq bo'ladi.

Yuqoridagi gapimizda zidlov munosabati –지만 [jiman] *ammo, lekin* bog'lovchisi orqali ifodalanib, 예쁘다 [yeppida] *chiroyli, go'zal* so'ziga bog'lanib kelgan.

Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar o'zaro ayiruv bog'lovchilari 가끔...가끔[kakkim...kakkim] goh...goh, 아니면...아니면 [animyon...animyon]

¹³² 경혜진. 회사가 당신에게 알려주지 않는 50 가지 비밀. 도서출판. 2007. 59 쪽. (*Kong He Jin, Firmaning sizga aytmaydigan 50 siri*).

¹³³ 이해인. 기쁨이 열리는 창. 서울. 마음산책. 2004. 31 쪽. (*I He In, Baxtga ochiluvchi derazalar*).

yoki...yoki yordamida bog'lanadi:

저기에 널던 아이가 가끔 울고 가끔 웃었다¹³⁴.

[Chogie noldon aiga kakkim ulgo kakkim usotta].

Anavi yerda o'ynayotgan bolakay goh yig'lardi goh kulardi.

Inkor munosabatli bog'langan qo'shma gaplar o'zaro 거나...거나 [gona...gona]

na...na inkor yuklamasi orqali bog'lanadi:

존쟁 고아들이 부모님을 잃으면서 먹기에 물거나 빵도 없었어요¹³⁵.

[Choncheng koadiri pumonimil irimyonso mokkie mulgona ppangdo opsossoyo].

Urushda yetim qolgan bolalar ota-onalarini yo'qotishi bilab birgalikda yeyishga na suv nanonlari bor edi.

III bob bo'yicha xulosalar:

1. Ergash gapning vazifasida kelgan -고, -(으)며 [-go, -(iy)myo] *(-i)b*), -지 말다 [-ji malda] *(-may)* affikslarini olgan ravishdosh formalari hech vaqt kesimni ifodalovchi shaxs qo'shimchasini olmaydi. Ba'zan -르 때까지 [-r tte kkaji] *(-guncha)* yordamchisi tarkibida ergash gapning egasi bilan shaxs, songa ko'ra moslashgan egalik affiksi qo'llaniladi.
2. o'tgan zamon sifat doshi o'rin – payt -에 [-e] va chiqish -에서 [-eso] kelishiklari affikslarini olib, ergash gapning kesimi bo'lib kelishi mumkin.
3. Ega ergash gap bosh gapda olmosh orqali ifodalangan eganing aniq ma'nosini ochish uchun xizmat qiladi.

¹³⁴ 박민기. 우리 존경하는 분들. 서울. 도아출판사. 1993. 90 쪽. (*Pak Min Gi, Biz e'zozlaydigan insonlar*).

¹³⁵ 신현실. 싫어 나라의 병정들. 서광사. 1995. (*Shin Hyon Shil., Hush ko'rmagan davlatning harbiylari*).

4. Kesim ergash gapli murakkab gaplarda bosh gapning kesimi faqat ot kesim shaklida ifodalangan bo'ladi va bu kesimlar sodda yoki qo'shma holatlarda uchraydi.

5. Ergash gapni bosh gap bilan bog'lashda -것 [-got]; -이[-i]; -말 [-mal]; -줄 [-chul]; -모양 [mo'yang]; -데 [-de];-바 [-ba] kabi mustaqqil bo'lmagan otlar ham ishtirok etishi mumkin.

6. Ega va to'ldiruvchili so'roq gaplarda jumlar so'roq yuklamalari -가 [-ga] va-지 [-ji] (*ekan*) qo'llanilib, barcha ergash gaplar bosh gaplarga asosiy kelishik -는 [-nin] yoki tushum kelishigi -를 [-ril] bilan bog'lanadi.

7. Sabab ergash gapli murakkab gaplarda holat – payt, maqsadli gaplar hamda vaqt jihatdan ma'lum bir sababni keltirishiga ko'ra -기 때문에 [-gi ttemune] (*sababli*), -(하)기 위하여 [-(xa)gi vihayo] (*nima uchundir*), -기 전에 [-gi chone], -하기 전에[-hagi chone] (*-dan avval, oldin*) kabi bog'lovchilar bilan birikadi.

8. Taqqoslash ma'nosidagi ergash gaplar o'zaro -기 보다 [-gi poda] (*-ga qaraganda*) qo'shimchasi orqali birikadi.

9. To'siqsiz ergash gapli murakkab gaplar -에 불구하고 [-e pulgu hago] (*-sa ham*) yordamchisidan tashqari ma'noni kuchaytirishda -도 [-do] *ham* kuchaytiruvchi bog'lovchisi ham qo'llanilishi mumkin.

10. Maqsad ergash gap asosan “uchun” -기 위해 [-gi vie] yordamchisi orqali bog'lanadi.

11. -고 [-go] bog'lovchi qo'shimcha uyushiq bo'laklarning so'z yasovchi

qo'shimchasidir. -고 [-go] uyushiq bo'laklarini bog'lovchi qo'shimchasi faktlarni, ya'ni o'zgartirib bo'lmaydigan holatlarni sanab o'tilganda ishlatiladi.

12. -(으)며 [-(iy)myo] bog'lovchisi harakatlarni sanab o'tishda qo'llaniladi. O'zbek tiliga tarjima qilinganda, “-ib” ravishdosh so'z yasovchisi hamda “va” teng bog'lovchisiga to'g'ri keladi. U og'zaki nutqda qo'llanilganda ‘매’va ‘며’ ko'rinishida talaffuz qilinadi.

13. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar o'zaro -와/과, 그리고 [-va/gva, kirigo] va, hamda bog'lovchilari, ham, -da yuklamalari yordamida bog'lanadi va bir paytda yoki ketma – ket ro'y bergan voqea-hodisalarni ifodalaydi.

Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gaplar o'zaro -지만 [-jiman] ammo, lekin, biroq bog'lovchilari yordamida bog'lanadi.

Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar o'zaro ayiruv bog'lovchilari 가
끔...가끔[kakkim...kakkim] goh...goh, 아니면...아니면 [animyon...animyon]
yoki...yoki yordamida bog'lanadi.

Inkor munosabatli bog'langan qo'shma gaplar o'zaro 거나...거나 [gona...gona]
na...na inkor yuklamasi orqali bog'lanadi.

X U L O S A

– Koreya ko'p asrlar davomida Xitoyning mustamlakasi bo'lib, o'zining shaxsiy alifbosiga ega bo'lmagan.

– U ilmiy jihatdan nisbatan keyinroq o'rganila boshlandi va tadqiqotlar natijasida uning oltoy tillari oilasiga mansub ekanligi aniqlandi.

– Koreys tili oltoy tillari oilasiga mansub ekanligi shuni ko'rsatadiki, unda gaplarning tuzilishi sintagmatik jihatdan turkiy tillarga yaqin turadi.

– Koreys tilidagi ega – ikkinchi darajali bo'lak – kesim strukturasi uni turkiy tillar bilan aynan bir xil ekanligini ko'rsatadi.

–Koreys tilining rivojlanishiga nafaqat koreys olimlari, balki rus olimlarining ham qo'shgan xissasi beqiyosdir. Xususan, Polivanov Ye.D., Xolodovich A.A.larning mazkur tilning rivojlanishida tutgan o'rnini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

– Ilk bora sintagmatik tadqiqot ishlari 80-yillarda O.S.Axmanova tomonidan olib borilgan bo'lib, mazkur ish *“Ilmiy matnda nutqiy ketma ketlikning sintagmatik kondensatsiyasi”* deb nomlanadi.

– Faqatgina 90-yillarga kelibgina sintagmatik tadqiqotlar bilan shug'ullanish keng tarqalib, bu borada ko'plab dissertatsiya ishlari yoqlandi.

– Gaplarning sodda va murakkab turlari formal jihatdan barcha tillarga xos xususiyatdir va u til universalisasi uchun xizmat qiladi.

–Koreys tilida sodda va murakkab gaplarni farqlash keyingi tadqiqotlardagina amalga oshirila boshlandi.

– Koreys tilida gap bo'laklari tartibi muayyan sintaktik va stilistik vazifalarni bajaradi.

– Koreys tilidagi murakkab gaplar bog'lovchilar va bog'lovchi so'zlar (skreplar) orqali sintagmatik munosabatga kirishadi.

– Koreys tilidagi murakkab gaplar nisbiy mustaqillikka ega bo'lishi ham mumkin.

– Ergash gapning vazifasida kelgan -고, -(으)며 [-go, -(iy)myo] *(-i)b*, -지 말다 [-ji malda] *(-may)* affikslarini olgan ravishdosh formalari hech vaqt kesimni ifodalovchi shaxs qo'shimchasini olmaydi. Ba'zan -르 때까지 [-r tte kkaji] *(-guncha)* yordamchisi tarkibida ergash gapning egasi bilan shaxs, songa ko'ra moslashgan egalik affiksi qo'llaniladi.

– O'tgan zamon sifatdoshi o'rin – payt -에 [-e] va chiqish -에서 [-eso] kelishiklari affikslarini olib, ergash gapning kesimi bo'lib kelishi mumkin.

– Ega ergash gap bosh gapda olmosh orqali ifodalangan eganing aniq ma'nosini ochish uchun xizmat qiladi.

– Kesim ergash gapli murakkab gaplarda bosh gapning kesimi faqat ot kesim shaklida ifodalangan bo'ladi va bu kesimlar sodda yoki qo'shma holatlarda uchraydi.

– Ergash gapni bosh gap bilan bog'lashda -것 [-got]; -이[-i]; -말 [-mal]; -줄 [-chul]; -모양 [mo'yang]; -데 [-de];-바 [-ba] kabi mustaqqil bo'lmagan otlar

ham ishtirok etishi mumkin.

– Ega va to'ldiruvchili so'roq gaplarda jumlar so'roq yuklamalari –가 [-ga] va –지 [-ji] (*ekan*) qo'llanilib, barcha ergash gaplar bosh gaplarga asosiy kelishik –는 [-nin] yoki tushum kelishigi –를 [-ril] bilan bog'lanadi.

– Sabab ergash gapli murakkab gaplarda holat – payt, maqsadli gaplar hamda vaqt jihatdan ma'lum bir sababni keltirishiga ko'ra –기 때문에 [-gi ttemune] (*sababli*), –(하)기 위하여 [-(xa)gi vihayo] (*nima uchundir*), –기 전에 [-gi chone], –하기 전에[-hagi chone] (*-dan avval, oldin*) kabi bog'lovchilar bilan birikadi.

– Taqqoslash ma'nosidagi ergash gaplar o'zaro –기 보다 [-gi poda] (*-ga qaraganda*) qo'shimchasi orqali birikadi.

– To'siqsiz ergash gapli murakkab gaplar –에 불구하고 [-e pulgu hago] (*-sa ham*) yordamchisidan tashqari ma'noni kuchaytirishda –도 [-do] *ham* kuchaytiruvchi bog'lovchisi ham qo'llanilishi mumkin.

–Maqsad ergash gap asosan “uchun” -기 위해 [-gi vie] yordamchisi orqali bog'lanadi.

-고 [-go] bog'lovchi qo'shimcha uyushtiruvchi bo'laklarning so'z yasovchi qo'shimchasidir. -고 [-go] uyushtiruvchi bo'laklarini bog'lovchi qo'shimchasi faktlarni, ya'ni o'zgartirib bo'lmaydigan holatlarni sanab o'tilganda ishlatiladi.

-(으)며 [-(iy)myo] bog'lovchisi harakatlarni sanab o'tishda qo'llaniladi. O'zbek tiliga tarjima qilinganda, “-ib” ravishdosh so'z yasovchisi hamda “va” teng bog'lovchisiga to'g'ri keladi. U og'zaki nutqda qo'llanilganda ‘매’va ‘며’

ko‘rinishida talaffuz qilinadi.

–Biriktiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar o‘zaro –와/과, 그리고 [-va/gva, kirigo] va, hamda bog‘lovchilari, ham, -da yuklamalari yordamida bog‘lanadi va bir paytda yoki ketma – ket ro‘y bergan voqea-hodisalarni ifodalaydi.

– Zidlov munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar o‘zaro –지만 [-jiman] ammo, lekin, biroq bog‘lovchilari yordamida bog‘lanadi.

– Ayiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar o‘zaro ayiruv bog‘lovchilari 가끔...가끔[kakkim...kakkim] goh...goh, 아니면...아니면 [animyon...animyon] yoki...yoki yordamida bog‘lanadi.

– Inkor munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar o‘zaro 거나...거나 [gona...gona] na...na inkor yuklamasi orqali bog‘lanadi.